



RIFA SALIMOVA

TO'MARIS



SHARIFA SALIMOVA

TO'MARIS



«DAVR PRESS»

Toshkent

2019


UO'K 821.512.133-1
KBK 84(50')6
S 26

Salimova, Sharifa

S 26 To'maris [Matn]: doston / Sh. Salimova
– Toshkent: «DAVR PRESS» NMU,
2019. – 80 b.


Ardoqli shoira Sharifa Salimova «To'maris» dostonida «Tarix otasi»ning bizning ikki yarim ming yoshli momomiz haqida yozganlariga aynan hayotiy va tarixiy haqiqat sifatida qarab, qadimiy, olis voqealarning poetik tragik manzaralari badiiy qayta tikladi. Shoira ushbu dostonida tarixiy faktlarga vujud ato etdi. Voqea kechgan muhit va vaqtning hissiy poetik manzarasini yaratdi. Yigirma besh asr avval bo'lib o'tgan voqea-hodisalar ko'z o'ngimizda ayni paytda ro'y berayotgandek yaqqol tasvirlanadi.

UO'K 821.512.133-1
KBK 84(50')6



ISBN 978-9943-5827-0-5

© Sharifa Salimova, 2019
© «DAVR PRESS» NMU, 2019



TO'MARIS

1

Poyonsiz sahrolar gulga chulg'andi,
Maysalar halloslab, qirlarga chopdi.
Qish bo'yi muzlikda junjikkan sahro
Ustiga Bahoroy baxmal to'n yopdi.
Daryolar guldirab, oqdilar masrur,
Oq, parquv bulutlar tutdi samoni.
Quyosh tishlab qoldi hayrat barmog'in
Ko'rgach, gulga to'lgan alvon dunyoni.
Orol janubida hilpirar bahor,
Osmonga o'rlaydi ingichka tutun.
Qulunlar irg'ishlar, tuyalar cho'kib,
Asta chodirini yoya boshlar tun.
To'lin oy zulmatni parchalab tashlar,
Soyalar singishib ketadi tunga.
Oq o'tov qoshida momolar notinch,
Nogoh sukunatni sindirar: Inga...
Inga. Naydek nafis bu go'zal tovush.
Inga... Shu'lalanib yotadi falak.
– Shohim, suyunchi, tez suyunchi bering...
Malika ko'z yordi...
O'g'il muborak!
Massagetlar shohi qilar tabassum,
Ko'ksida sohir qush sayraydi chunon.
Yo'rgakdagi go'dak shirin tamshanar,
Nurdan sochqi sochar zaminga osmon.
– Malikam, muborak, o'g'il sizga ham,

Go'yo ko'rayapman men bir shirin tush...
Harir liboslarda nurga chulg'anib,
Tabassum qilmoqda go'zal To'maris.
To'maris... Sochlari misli shalola,
Yovvoyi sahroning erkā bolasi.
Bugun ohu kabi u go'zal juvon.
Bugun u pahlavon go'dak onasi.
To yarim tungacha yondi gulxanlar,
Sahro entikadi, chechaklar sarxush.
Massagetlar shohi mijja qoqmadi:
– O'g'lim, bu olamga xush kelibsan, xush.

2

– O'g'lim, jigarbandim, chor-atrofga boq,
Bular sening dalang, sening makoning.
Kindik qoning tomgan bu kengliklarga
Endi azal-abad tutashdir joning.
Dunyoning qaysi bir burchida bo'lma,
Tovoning sog'inar shu ulug' tufroq.
O'g'lim, mening qalbim ko'zlari ila
Ajdodlaring yurti – kengliklarga boq.
Tillo qanotli-oy suzadi ko'kda,
Yovshanlar ufurar bahor isini.
Ulug' mo'ysafidlar tonggacha bedor –
Xotir kitobiga bitar tushini.
Massagetlar shohi o'g'lini quchar,
Go'dak isi to'lar cho'lu sahroga.
Tamshangan chaqaloq – ko'zlari yumuq
Ona ko'ksi, deya boqar dunyoga.

3

Qabila ko'ksida yana bir quyosh:
– Barcha ulug'larni endi aylang jam.

4




Qo'ng'iroqlar yana xush jaranglasin,
Momolar ham chetda qolmasin, qarang.
O'g'linga munosib ism topamiz,
Toki unda bo'lsin burgut shiddati.
Oqar daryolarning hayqiriqlari,
Ulug' qabilaning ulug' qudrati.
Ona allalari oqsin qonida,
Ona xalqi uchun u bo'lsin qalqon.
Asrlar o'tsa ham massagetlarni
Xotirida tutsin jumlayi jahon.
Toki massagetlar faxr eta olsin,
Haqiqat oldida buka olsin tiz.
– Shohim, o'g'lingizga biz ism topdik
Shohim, uni deymiz biz Spargapis!
Jajji Spargapis uxlaydi ma'sum,
Shamol islarini hidlaydi to'yib.
To'maris jilmayar, mas'ud, shodumon,
– Hali ulg'aysinki bir yigit bo'lib.

4

Vaqt ildam chopadi, yuguruk, shoshqin,
Yigit to'lganida o'n sakkiz yoshga.
Massagetlar shohin qistadi ajal,
Foniy dunyo boshqa, boqiylik boshqa.
Yuguruk vaqt chopar – qaysar suvoriy.
Hech kimga, hech qachon tutmayin quloq.
Massagetlar shohi ko'z yumar chog'i
Dedi: – Malikam, sen g'arndan bo'l yiroq.
Ko'z yosh to'kaverma, sindirmasin dard,
Mening muhabbatim sen bilan mudom.
Yurtim va o'g'linga qo'ndirmagin gard,
Shunda mening qalbm topadi orom...
Malika qo'lida qolib qo'llari...
Shoh ketdi. Mangulik yurtiga shosha.

5



To maris... To maris... go'zal malika!
Endi seni kutar qanday tomosha?

5

Saroy. Bazmi jamshid chiqqan avjiga,
Qandillar quyoshdek sochayotir nur.
Oltin taxtda oltin qadah ko'tarib
Sarxush chayqaladi Eron shohi Kir.
Musiqa yangraydi sehrli, dilxush,
Tinmay sipqorilar anor tusli may.
Raqqosalar nozli xirom etadi,
Goh mungli yig'laydi sozlar aro nay.
Barkash to'la oltin qo'lma-qo'l o'tar,
Sochqilar sochilar hurlar boshidan.
Qaydadir ingraydi faqir bir miskin
Boshini qo'yganча qabr toshiga.
Jang-u jadallar-u, qirg'inbarotlar
Xalqning tinkasini obdan quritmish.
O'lmas shoh atalmish Eron shohi Kir.
Ko'z yoshli kosani xalqiga tutmish.
Ne-ne azamatlar yo'qlikka uchdi,
Urush so'rayverdi sanoqsiz qurbon.
Davlatlar shoh Kirning qo'lga o'tdi,
Yurtim deb, o'g'illar berganida jon.
Nogoh bazmi jamshid taqqa to'xtaydi,
Kir qo'lida qadah, turar purviqor.
Vazir qo'l silkib der: endi tarqaling,
Ertaga shoshilinch maslahatlar bor.

6

Saroy suv quygandek sukutga cho'mgan,
Gullarning ifori olamni tutmish.
Boyonlar shivirlar shabada misol:

6



– Massagetlar shohi olamdan o'tmish.
Mashvarat boshlanur, podshoh Kir shodon,
Kutgan xushxabari joniga malham.
Necha zamonlarki orzu qilardi,
Massagetlar yurtin qul qilmoqni ham.
To'siq yo'q,
To'maris endi qolmish tul,
Qo'lin so'rab unga qo'yadi tuzoq,
Sarhadlar kengayar.
Shuhrati oshar,
Jangsiz qul bo'ladi xotin bo'lgan chog',
Bitilgan maktubga ko'z tashlaydi shod,
Go'yo burgut kelib qo'nadi qo'lga.
– Ayting, der elchiga, maktubni olib,
Zudlik bilan tushsin biz aytgan yo'lga.

7

– O'g'lim, qo'llaringni yuragimga qo'y,
Ko'ksimga boshing qo'y, u urar duk-duk.
Otang men bilan bir nafas olmoqda,
U qalbim to'rida, u mudom tirik.
Vatan ham biz bilan, sahro, qir, adir,
Olov selida ham Vatan yagona.
– Onajon, men yerga quloq tutyapman.
Yerning ham yuragi bor ekan, Ona.
– Shunday, o'g'lim, shunday, suyangan tog'im,
Kel, ko'ksimga bosay, jajji arslonim.
O'g'il onajonin ko'z yoshin artib,
Dedi: – Sizga fido bo'lsin bu jonim.

8


Ipak sochlarini o'ynaydi shamol,
Uchib borayotir bulut kabi ot.

Sahrolar shivirlab qolar bemajol
Boshiga egilib kelar koinot
Qirg qiz tulporidan chaqnaydi chaqin.
Olov shamshir kabi yarqirar bari.
Oldda yelib borar go'zal To'maris,
Ortda cho'l-biyobon malikalari.
Ozod kengliklarning ozod qushlari,
Tim qora ko'zlarda yonadi quyosh.
Sarvqomat, mag'rur, mohir chavandoz,
Barchasi navnihol, bari juda yosh.
Biroq, kamon otsa bexato nishon,
Qilich chopganida kesilar tosh ham.
Sarvqomat qizlar bo'y yetgan qizlar
Ne-ne suronlardan chiqadi omon.
Yigitlar chaqmoqdek maydonga kirar.
Kurash tushganida hansiraydi yer.
Qoyadagi burgut qo'liga qo'nar,
Ular misli yo'lbars, ular misli sher.
Massagetlar yurti... g'anim qo'liga
Bermagan hattoki bitta toshini.
Massaget quyoshi – judolik yomon
Hech kimga ko'rsatmay artar yoshini.

9

Massagetlar shohi boqiy dunyoda...
Hayot davom etar. Qaynaydi qozon.
Ibtido intiho oralig'ida
Bu ko'hna dunyoga barchamiz mehmon.
To'maris tunlari mijja qoqmaydi,
Olislardan esar noxush shamollar.
– Qizim, birozgina mizg'ib olsang-chi, –
Deb dalda beradi donishmand chollar.
Tun tirik. Bu ko'zlar doimo chaqnoq,
Yulduzlar g'alati porlab turadi.

8



To' maris, To' maris go'zal malika
Tonggacha yurt kezib bedor yuradi
Ba'zan ot choptirib uzoqqa ketar,
Chopa-chopa tulpor terga botadi.

To' maris...

Otning og'zidagi ko'piklarini

Ipak ro'molchasi bilan artadi.

– Bo'sh kelma, tulporim. Bo'sh kelma, jonvor.

Mening sadoqatli do'stim o'zingsan.

Ipakday yolingga bo'layin tumor,

Kengliklarga boqqan ko'rar ko'zimsan.

Men bu dunyolarga sig'mayin qolsam.

Sirimni o'zingga oshkor etaman.

Yolg'iz o'zing, yolg'iz sen bilan, do'stim,

Poyonsiz olamga uchib ketaman.

Bo'sh kelma, tulporim, bo'sh kelma, jonvor,

Bu tun ham beminnat sen bilan qolay.

Sening o'mrovingni jannat deb bilib,

Bir nafas, bir nafas men mizg'ib olay.

Tulpor asta-asta qadam tashlaydi.

Ona allasiga o'xshar yurishi.

U go'zal do'stini asrab-avaylab,

Tong chog'i qabila tomon kelishdi.

Tulpor yollariga uyqashdir sochlar.

Subhi-sabo uni silaydi asta.

Go'zal To'marisning beorom umri

Yurtin oromiga mudom payvasta.

Subhidam uyg'onar zarb tovushidan,

Navqiron yigitlar saf-saf turadi.

Mohir tirandozlar, abjir ovchilar

Viqor-la qo'shinga qarab yuradi.



Har tong malikaning er yigitlari
Vatan oromi-chun mashq qilār chapdast.
Ular qoplon misol epchil va hushyor,
Hatto yo'lbarslar ham kelolmaydi bas.
Spargapis mashhur tirandoz, o'ktam.
U ot chopganida yetolmas shamol.
U qilich o'ynatsa, osmon hayratda.
U kurash tushganda zamin bo'lar lol.
Massagetlar yurti... O'tov... oq tutun
O'rlab yuksaklikka singib ketadi...
Yigitlarki... tinim bilmas tun-u kun,
Ular Vataniga qalbin tutadi.

11

Nogoh olislardan otliq ko'rindi,
Tulporning dukuri tushdi quloqqa.
Yo'lovchi charchagan ko'p horg'in edi,
Belangandi boshdan-oyoq tufroqqa.
Keksalar sinchiklab qarashdi uzoq,
Yosh-yalang qiziqib so'roqqa tutdi.
Malikaning maxsus xos xizmatchisi
O'tovga yo'lcini yetaklab ketdi.
Elchi... tunni tun demayin, kunni kun demay,
Jazirama olov selini yutib.
Olis o'lkadagi podshoh nomidan
Go'zal To'marisga keltirmish maktub.
Borliq jim. Sukutda... mashvarat uchun
Yig'ilib kelishar ulug'lar bir-bir.
Bir zum orom olgan elchi so'zini
Tinglamoqqa mahtal bu dunyo axir.
Elchi yerni o'pib qiladi ta'zim.
Quyosh ma'budidek To'maris shoyon.
Elchi bosh eggancha turaverar jim,
Maktub tutgan qo'li go'yoki bejon,



Qotgancha so'ng asta tushar titroqqa
Maktubni o'qiydi xizmatchi sekin
Chuqurroq egilar shoyi varoqqa.

— Bu men — Vavilon-u, Assiriyan,
Midiyan qo'lda tutgan shahanshoh —
Buyuk Kir bo'laman. yengilmas, jasur,
Mening kimligimdan bu dunyo ogoh.
Men sizga, malikam, salom yo'llayman,
Uni qabul aylang, qilmangiz inkor.
Toki, suyansangiz tog'ingiz bo'lay,
Otashin sevgimdan aylang iftixor.

Malikam, sizdagi bu tengsiz chiroy,
Bu mag'rur qalbimni band-u band etmish.

Ipak kokilingiz mendek bir shohni
Bechora qul misol zanjirband etmish.
Sizning xayolingiz ila o'tar kun,
Qafasdagi qushdek qiynaladi jon.
Go'zal chehrangizni bir dam ko'rgali
Menda na iloj bor va na bor imkon.

Tegramda charx urgan nozanin gullar
Endi uyg'otolmas zarracha hohish.

Qaro tunlarimni yoritar shamdek

Sizning vaslingizni va'da qilgan tush.

Keling, saroyimning bekasi bo'ling,

Bugun tushlarimda Sizni ko'ribman.

Ozod kengliklarda qanot qoqqan qush.

Sizning qo'lingizni so'rab turibman.

Go'yo chaqmoq chaqib, olovli shamshir


Tilib yuborgandek samo ko'ksini.

Spargapis nogoh yo'lbarsdek sapchib


Parchalab tashlamoq bo'ldi elchini.

— To'xta, o'zingni bos, qiziqqon bo'lma.

Elchiga o'lim yo'q. Yo'q unda gunoh.



Sen elchining emas, og‘uli maktub.
O‘ralgan g‘unchaning qatlariga boq.
Vatan xavf ostida... Podshoh Kir bizni
Qul qilmoqni aylab qoldi ixtiyor.
Elchiga o‘lim yo‘q... Bu xavf oldida
O‘ylamay qilingan harakat bekor.
Senga bu so‘zlarni men emas, o‘g‘lim,
Bir-bir so‘zlamoqda oppoq soch tolam.
Bu maktubga qanday javob berishni,
Malikamiz bilar, lochinim bolam.
Ulug‘ mo‘ysafidning go‘zal viqori,
yetti o‘lchab, so‘ngra kesmog‘i bir-bir.
Barchani nogahon hushyor torttirdi.
Yurtga da‘vo qilar makkor podshoh Kir.
Bu g‘arazli maktub tinch daryolarni
O‘zandan chiqarib, qilganday bebosh.
Qahr-u g‘azabga liq to‘ldi qabila,
Oromin yo‘qotdi kekxa hamda yosh.
Nima qilmoq kerak? Barcha sukutda.
Qanday javob qilar To‘maris ona.
Nogoh rad etmasa podsho xohishin,
Massaget o‘lkasi bo‘lar vayrona.
Nahot qafas kutar sor lochinlarni,
Nahot hur qizimiz bo‘lar kanizak.
Nahot ozod kunlar abas bo‘lsa-yu
Boshimizga toshlar yog‘dirsa falak?
Qanday javob qilar go‘zal malika?
Barchaning dilida birgina savol.
Nihoyat sukutni parchalar hukm:
– Neligin bilamiz og‘u tushgan bol:
Ayting, shohingizga, so‘zimiz bitta,
Qanday kelgandingiz. Shunday kettingiz.
Ushbu oq matoga o‘ralgan toshni
Uning qo‘llariga albat eltingiz.
Bizning niyatimiz oq mato kabi,



Yomonlik qilmaymiz Sizga hech qachon.
Biroq, bizga qarshi qo'l ko'tarsangiz,
Sizga xarsang qaytur bizdan beomon.
Yana takror ayting, urush bo'lmasin,
Ummondek chayqalsin osuda hayot.
Gul-u maysalar-u, tog'lar chechagi
Bizni duo qilib tursin umrbod.
Yana takror ayting, urush bo'lmasin,
Og'a-inilardek yashaylik inoq.
Go'daklar uyqusi musaffo bo'lsin,
Onasi boshini silayotgan chog'.
Ayting shohingizga, rad javobimiz
Uning ko'zlarini to'ldirsa qonga.
Daryoning har ikki tomoni asli
Uch kunlik yo'l erur bizning tomonga.

So'ngra yovlashamiz. Va qilamiz jang,
Massagetlar unga boshin egmaydi.
yengilmas shahanshoh uni ne qismat
Kutib turganini hali bilmaydi.
Endi yo'lga chiqing. Dovqur yigitlar,
Elchining yonida qoyadek turing.
Qorasi ko'rinmay ketgunga qadar
Beziyon, bezahmat kuzatib turing...
Malika qo'lini ko'ksiga qo'ydi,
Ko'zlari yonardi, tovushlari shahd.
– Menga ishonchingiz, mehringiz uchun,
Ulug'larim, sizga beqiyos rahmat.

12

Eron shahanshohi yurar betoqat,
Ketgan elchisidan yo'q hanuz darak.
Firdavsmonand bog'lar sig'mas ko'ngliga,
Na boshidan nurlar quyguvchi falak.
Men kim Eron shohi – yengilmas podshoh,



Yaqin Sharq ilgimda — gozal Vavilon,
Assiriya hamda Midiyalarni.

Bir hamlam bilan o'q qildim men vayron.

Oldinda yovvoyi Osiyo turar

Tezda G'arb-u Sharqda qoqaman qanot.

Massagetlar menga o'yinchoq erur,

Menga qarshi tursa bo'ladi barbod.

Men Kirman, dunyoni dahshatga solib,

O'lmas shoh bu, deya qoldiraman iz.

Azamat o'g'lonlar, ey botirlarim,

Hamisha jangga siz tayyor turingiz.

Betoqat to'lg'onar makkor shahanshoh,

To'maris yodidan chiqmaydi bir dam.

Nogoh xizmatchisi xabar keltirar:

— Podshohim, qaytibdi endi elchi ham.

Horigan, ezilgan elchi jimgina

Podshoh oyog'ini ko'ziga surar.

Qo'lida oq mato neder o'ralgan

Elchi sukut saqlab hamon jim turar.

— Xo'sh, qanday xabar bor, gungmisan, so'zla,

To'marisdan bormi biror xush xabar.

Yaxshi xabar bo'lsa, bo'lg'in ogoh sen,

Boshdan oyoqqacha sochajakman zar.

Tilloga ko'milib bo'lasan sarmast,

Ne nozanin qizlar gullar tutadi.

Yomon xabar bo'lsa...

Qahrlanar shoh,

Shak-shubhasiz albat boshing ketadi.

Gapir qo'lingdagi bu qanday matoh.

— Bumi, bu... tosh... Shohim, omonat narsa, —

Elchi bosh ko'tarmay, chizadi yerni. —

Bir qoshiq qonimdan o'ting shahanshoh,

Bu toshni malika To'maris berdi.

Sizning taklifingiz u ayladi rad,

So'ngra tinch yashashni qildi ixtiyor.



Agar u o'lkaga ko'z solsangiz gar,
Har birin qo'lida toshmas, xarsang bor.
Ko'prik quraman deb mashaqqat chekmang,
Massagetlar sizga bermaydi ozor.
Qo'shnlarni olib tinch va xotirjam
Siz daryodan suzib o'ting bermalol.
Urush boshlasangiz to daryogacha,
Uch kunlik yo'lni siz bosib o'tasiz.
So'ng daryodan kechib, yana yo'l yurib,
Uch kundan so'ng uni jang-la kutasiz.
To'maris o'zining elini olib,
Uch kunlik yo'l yurib ketadi nari.
So'ngra qirg'inbarot janglar boshlanar
Muddat tugagan kun tongning sahari.
Bor javob shu bo'ldi. Ma'zur tuting shoh,
Massagetlar tog'dek g'ururli ekan.
Ular nigohida men bir sir ko'rdim:
Ko'zida chayqalib yotibdi Vatan...

– Bu qanday nadomat, bu qanday xo'rlik,
Massagetlar uni pisand qilmadi.
Shunday buyuk shohni, yengilmas shohni
Bir yovvoyi ayol ko'zga ilmadi.
Eshitgan quloqqa bu ne gap axir...
Go'yo qulab ketmish osmono'par tog'.
Kir karaxt... saroyini na'rasi tutar:
– Baring qul qilaman. Qo'ygancha tuzoq.
Shoh uch kun betoqat ko'zin yummati,
Yulduzlarni bir-bir sanab chiqdi u.
Eng qabih, eng makkor hiyla iplarini
Hasad tarog'i-la tarab chiqdi u.
Shoshmay tur To'maris... Meni Kir derlar,
Sening so'zlaringga quloq solayin...
Shunday makr qilay, senga sezdirmay
Qaysar yuragingni yulib olayin.



Shoshmay turb To'maris... Shoshma ey ayol...
Sen qayg'u loyiga qolasan botib...
Uzoq sukunatdan so'ng birdaniga
Kir tongni bo'zartdi qahqaha otib.

13

Podshoh saroyida bir sharpa kezar,
Uning neligini sezmas hatto qush.
U shoh yuragiga qutqular solar:
– TEZROQ AMR AYLANG,
BOSHLAYMIZ URUSH.
Ozod o'lkalarni, yot o'lkalarni
Jang ila bo'yaylik qip-qizil qonga.
Hech kimsa sizga teng kelmaydi, shohim,
Tug'ingiz porlasin o'sha makonda.
Sizga cho'ri bo'lsin mag'rur To'maris,
Yigitlari bo'lsin sizga otboqar.
Dunyo bilib qo'ysin, bosh egmaganning
Holi asli bundan bo'lar beshbattar.
Tezroq amr aylang, boshlaylik urush,
Massagetning nomi o'chsin dunyodan.
Ko'prik qurmoqlikka amr aylangiz,
Qo'shin o'tolmog'i uchun daryodan.
Kir nogoh bir sapchib tushadi: – Ha, ha,
Soldan ko'prik yasang... Ko'prik... darhol.
Katta jangga katta tadorik zarur...
Araks sollanib oqar beg'ubor.
O, Araks. Ulug' daryo, ulug' suv,
Ne-ne qirg'inlarni ko'rmadi boshing.
Yana pok bag'ringga tushmoqda g'uluv,
Yana tinmas bo'ldi ko'zdagi yoshing.
– Qani, boyonlarim, birma bir so'ylang,
Ne qilsak g'alaba bizga bo'lur yor.
Kir bobosi – qahri qattiq Krez der:



Massagetlar tomon o'tmoqlik darkor.
Saroy naq arining uyasi kabi:
Hozirlik ko'rilar katta yurishga.
Navqiron yigitlar, sarkardalar ham
Tunni mijja qoqmay o'tkazar tikka.
– Bobo, o'g'lim Kambis, Eronda qoling.
Biz lashkarlar bilan yo'lga chiqamiz.
Massagetlar hamda To'marisni ham,
Tufroqqa tiqamiz – go'rga tiqamiz.
Toki bilsin ular Kir kim ekanin,
Osiyo qo'limga qo'najakdir naqd.
...Bir chekkada turar navqiron yigit,
Oyga termulgancha ma'yus va karaxt.
Balo-qazo kabi yeladi qo'shin,
Araks to'lg'anib, azobda oqar.

Ne-ne ofatlarning guvohi oy ham
Yuzga parda tortib, bulutdan boqar.
Nechun kerak qirg'in, nechun kerak jang?
Javobsiz savol bu, qaydadir biroq,
Abadiy hayotning bongini chalib,
Dunyoga kelmoqda yana chaqaloq.
Araks to'lg'onar, guvlaydi daryo...
To'maris ketmoqda uzoq yo'l bosib.
Massagetlar ketar uch kunlik yo'lga,
Qurol-yarog'ini yelkaga osib.
Qo'shin kechib o'tdi daryoni oxir,
Lashkar o'rtasida tinmaydi yumush.
Bir nafas mizg'igan Kir – qonxo'r podshoh
Xobida Doroni ko'rayotir tush:
Qarindoshi Doro Osiyo uzra
Va Ovrupo uzra qoqarmish qanot.
Kir o'zida yo'q, uyg'onar mamnun:
– G'alaba menga yor bo'libdi nahot?
Bu tush xayrlidir, hvey lashkarlarim

Abdulla Qodiriy nomidagi

17

viloyat AKM

INV No

168563-2019

Har lahza bag'oyat hushyor turinglar.
Bir kun yo'l yuramiz, so'ngra to'xtaymiz.
Ana o'sha joyda chodir quringlar.
Mo'ri-malax kabi yuradi lashkar,
Boshi va oxiri ko'rinmas sira.
Chodirlar tikildi, yozug' dasturxon,
Sharob dengizlari tugamas sira.
Turfa taomlar-u, oltin qadahlar
May bilan limmo-lim, hatto ko'z tinar..
Bir qism lashkarni shu yerga tashlab,
Kayxisrav orqaga chekinar.
Nogahon To'maris topadi xabar:
– Nahot Kir qo'shini ortga qaytadi.
– Kir ortga qaytibdi, askar qoldirib.
Hamma bir-biriga shuni aytadi.
Maslahat qiladi qabila yana,
Kimdir yonib so'zlar, kimdir sokin... Jim.
Spargapis yo'lga otlanar darhol:
– Lashkaringni asra, o'g'lim, jon o'g'lim!
Hushyor bo'l, hamisha ko'zim yo'ldadir..
Ko'ksini chaqmoqdek tilib noxush his.
Barcha ulug'larni yoniga olib,
O'g'liga fотиha berdi To'maris.

14

Chaqmoqdek yarqirar navqiron o'g'lon,
Dushman chodirlarin yorib kirar shart.
Kamonlar shirqirar, nayza otilar,
G'animni shiddat-la qilgancha karaxt.
Yo'lbarsdek otilar g'animi tomon,
Yigitlar bo'g'zida titraydi suron:
– Seni g'animlarga berib qo'ymaymiz,
Aziz ona yurtim, aziz onajon!
Tariqdek sochilar g'anim lashkari,



Qolgan-qutganlari qochadi yana.
Yigitlar ko'ksida porlaydi tug'yon:
– G'alaba-yu g'alaba... g'alaba..!
Jang maydoni sokin, chivin uchmaydi,
Sochilib yotadi yerda murdalar.
Horigan yigitlar olmoq uchun tin
Bir nafas... bir nafas chodirga kirar.
Hayhot, bu jannatmi... anvoyi taom,
Xush islar misoli hushni oladi.
Chodir devorida turfa naqshlar
Bir bora ko'z solgan hayron qoladi.
– Bu qanday suv erur? Yöqutdek yonar,
Yigitlar umrida ko'rmagan uni.
Bu tansiq qush go'shti, bu kaklik, bu ne,
Ko'zlardan quvadi nogoh uyquni?

Yigitlar o'ttirib taomlanar xush,
Yigitlar sezmayin icha boshlar may.
Bir muddat o'tganda bo'lgancha sarxush,
Qo'shiq ayta boshlar, yo uxlab qolar.
O, makkor Kayxisrav. Nafs bandasi
Guldek yigitlarga sen qo'yding tuzoq.
Yigitlar, yigitlar, o'lim chohida
Nahot shuncha uxlash mumkinmi uzoq?
Ular uxlaydilar ma'sum va go'zal,
Ajal rohatlanib qo'shiq boshladi.

...Qonxo'r Kir itlari shafqat bilmayin
Ularni qilich-la chopib tashladi.

15

– O'g'ling qo'limizda, ne deysan, ayol,
Taslim bo'l, bo'lmasa ketadi joni.
Shamollar yetkazdi onaga xabar
– Vayron bo'ldi, – deya bor xonumoning.



Spargapis asir. O'kraydi shamol,
Ingraydi barxanlar, ingraydi sahro.
To'maris, qaddingni tik tut, ey Ayol,
Yo'qsa ozodlik ham bo'ladi ro'yo!

To'maris ichidan keladi ingroq,
Qilichiga tomar labining qoni.
Kirga xabar yo'llar. Bir so'z demayin
Elchini yo'llaydi o'sha zamoni.
– Qonxo'r Kir! Qahramon emassan bilgin,
Bu g'alaba emas, bu nayrang, yolg'on.
Halol jangda qilich kuchi bilanmas,
Uzum suvi ila sen yengding, inon.
So'zimga quloq sol, o'g'limni qaytar,
O'g'limni menga ber. Yaxshilikcha ket.
Yo'q desang, To'maris ichadi qasam.
Boshingga it kunin solajakman. It!
Tangri nomi ila qasam ichaman.
Yuh o'lsang hamki seni to'ydiraman.
Bolanmi qaytib ber, yo'qsa ey mal'un,
Qonga g'arq qilganicha seni o'ldiraman.
Kir maktubni o'qib, zaharli kular,
Der: – Ayt, ahmoq ayol so'zidan qaytsin.
Meni Kir deydilar sahroyi Ayol
Endi tushlarini suvlarga aytsin.
Elchi noxush keldi, bo'g'riqib yuzi,
To'mariga barin ayladi bayon.
Malika haykalga aylangan edi,
Go'zal yuzlaridan qochganicha qon.
So'ng otin yeldirib, olisga ketdi,
Muzdek yerga berib yotganicha bag'ir.
Qabrni quchoqlab, ko'kka qaradi,
Shohning qabri edi u quchgan qabr.



U xuddi yarador arslon singari
To'rt tomon yugurdi, qush kabi uchdi.
So'ng qo'lin quyoshga cho'zgancha uzoq,
Xuddi ma'bud misol... U qasam ichdi.

– O, quyosh tangrisi!

Ulug' noming bilan qasam ichaman...

Sening otashingdan yayrar koinot.

Olov joming bilan qasam ichaman.

Sen borsan, olamda gurkirar hayot.

Sening nuring emgan maysalar haqqi,

Go'daklar tovonin o'payotgan yer,

Ulug' ummonlar-u, jilg'alar haqqi,

Anvoyi chechaklar tutgan dala qir,

Rizqini jimgina eltgan chumoli,

Yaylovda quyundek uchgan tulporlar,

Oftobro'yalarda isingan chollar

Maysalar yuzini yuvgan yomg'irlar,

Dengizlar tubida yashiringan durlar,

Sochlarimni silab, yugurgan shamol,

Kelinchak misoli iymangan hilol...

Tunlari samoda yongan yulduzlar,

Navrasta o'smir-u, bo'y yetgan qizlar.

Barchasin ko'ksida tutgan yer haqqi,

Ulug' osmon haqqi... ulug' el haqqi...

Qasam ichaman...

Tanamda qolarkan toki tomchi qon,

Ona vatanim-chun bo'laman qurbon.

Toki g'anim bizga ega bo'lmagay,

Elim yurgan yerda aslo yurmagay,


Bizning o'choqlarda qaynatmas qozon,

Ozod kengliklarga bo'lolmas xoqon.

Hur qizlar kanizak bo'lmas saroyda,

It yotmas arslonlar o'kirgan joyda.

G'animni misoli yoydek bukaman,



Men g'alaba uchun jonim tikamani.
Boshiga o'limdan kiydiraman toj.
Unga panoh bo'lar qon to'la sanoch.
O'lim uni do'stim deya quchadi,
Sanoch to'la qondan to'yib ichadi.
Qasam... Dushman bukar qarshimizda tiz..
Tulporin yeldirib ketdi To'maris.

16

Spargapis go'yo yomon tush ko'rar.
Xuddi tosh bosgandek vujudi og'ir.
Qushdek qanot qoqib uchayin desa,
Oyoqlari og'ir, qo'llari og'ir.
Bu qanday sir deya, qiynalar yigit,
Sodiq navkarlari bermaydi tovush..
Hamon anglay olmas, makkor Kayxisrav
Hiylasi batamom berganini ish:
U nogoh ko'z ochib, lol qotdi bir zum,
A'zoyi badani tushdi titroqqa.
Bosh uzra Kayxisrav iljayar edi,
Qilichini tirab aziz tufroqqa..
– Xo'sh, sen To'marisning asl tulpori,
Poygaga kirmasdan, bo'libsan zabun.
Qani, seni sevgan mehribon onang,
Qani, ko'kragiga urgan o'sha kun?
Meni o'lmas podshoh deydi bu dunyo,
Menga yo'lolmaydi hattoki ajal..
Qani, sen suyangan bahodirlaring,
Bir og'iz amringga bo'lguvchi mahtal?
To'maris so'zimni rad etdi va lek
O'ziga u qabr qazidi beshak.
Men bilan jang qila olar emishm-u,
Yo'rgakda sut hidi anqigan go'dak?
Atrofingga bir boq, neni ko'rursan,



Har galgiday omad menga kulgan gal.
Chaqir do'stlaringni, kelar ekan kim,
Barchasini quchib yotibdi ajal.
Uyat azobidan titraydi yigit,
Zanjirband sher kabi urinar chunon.
Qaniydi nomusdan singsa tufroqqa,
– Oh, men nima qilib qo'ydim, onajon,
Nahot qabilamga keltirgum kulfat...
Onajon, onajon, hiylaga uchdim,
Men o'g'il emasman, bir ismim g'aflat.
G'alaba o'rniga, sharobni ichdim,
Mening botirlarim bo'ldilar qurbon.
Onajon, onajon, bebaho onam,
Meni hiyla qildi tamom sharmisor.
Qani, ko'ksimdagi ulug' g'ururim,
Qani, siz uyg'otgan nomus bilan or?
Shu ulug' tuyg'ular taloshi aro
Mening tirikligim bo'ldi-ku bekor.
Onajon, kechiring, ulug'im onam,
Diydor qiyomatga qolganligi rost.
So'ng tilga kirdi-yu, podshohga dedi:
– Meni kishanlardan aylangiz xalos.
Qo'llarimni yeching, men shoh o'g'liman,
Siz makkorlik ila qildingiz asir.
– Mayli, ko'raylik-chi, ne hunari bor,
Qah-qah otib kuldi g'olibona Kir.
Mening to'rimdagi oltin baliq ul,
To'marisning joni. Ketmas uzoqqa.
Hademay shamoldek yelib kelar ul.
Parvona kelgani kabi chiroqqa...
Yigit qo'llaridan og'ir sirg'alib
Kishanlar sarkarda poyiga tushar.
Chor-atrofda yotar do'stlari bejon?
Joni qaqshab borar, qoni uvishar.
– O, quyosh tangrisi! O'zing ber madad...



Yigit soqchi tomon indamay bordi.

Yo'lbarsdek tashlanib, xanjarin olib

Navqiron yurakka tiqib yubordi.

Issiq... juda issiq... Lovullar samo,

Go'yo tangri jomda otash tutadi.

Qip-qizil qon ila alvonrang dunyo,

Ufqqa qon ila vido bitadi.

Duk-duk... Qaydin kelayotir ilohiy tovush,

Nahot onam kelmish qoshimga bu dam.

Onajon, qo'lingiz ko'zimga suray,

G'aflat azobini ko'tarmas tanam.

Bu sizmisiz, Ota. Qo'limdan tuting,

Xanjarning tig'idan orom olur jon.

Men yurtim sotmadim. Ishoning, ota,

Endi ketayapman yolg'iz siz tomon.

Ona, ne dedingiz? Vatan biz bilan,

Olov selida ham Vatan yagona.

Onajon, men yerga quloq tutyapman,

Yerning ham yuragi bor ekan, Ona!

Duk-d-u-u-k... Yurak ketib borar boqiy dunyoga,

Quyoshning qip-qizil nuriga botib.

Kir tosh qotib turar... so'ngra qilichin

Yovshanlar ichiga yubordi otib...

Shamol yuguradi ho'ngrab, halloslab.

– Bolang o'ldi, ona, sochlaringni yoy...

Samoda yulduzlar ingrab yuborar,

Ko'z yoshin bulutga yashiradi oy.

– Bolang o'ldi, ona! Sochlaringni yoy...

Qaydin kelayotir ajal singgan is.

O'q yegan qush kabi pitirlar yurak,

O'q yegan qush kabi ingrar To'maris...

To'maris...

– Qaddingni tik tut, Ayol,

Alamlarni yut, Ayol.



O'zing aytgil, dunyoda,
Kimning bag'ri but, ayol?
Maysalar shivirlab aytdi bu so'zni,
Araks guldirab bu so'zni aytdi.
Sahrolar, adirlar, qirlar qo'shilib,
Vatan degan ulug' sohildan qaytdi.
To'maris... Tik turar qoya misoli,
Ko'zlarida yonar nafrat degan o't.
Joni jahonida azob to'lg'onar:
– Sen Vatan oldida dunyoni unut.
O'g'lim, sen yuzimni qaro qilmading,
Sizlar ham jon bergan, ey botirlarim!
Endi ulug' jangga kirajakmiz biz,
Ketdik azamatlar... Bahodirlarim...

17

Lashkarlar guvillar, gurillab borar,
Oldda To'marisning uchadi oti.
Go'yo dovul unga boshchilik qilar,
Go'yoki bo'ronlar silar qanotin.
To'zon ko'tarilar samoga qadar,
Ko'ksini yondirar ilohiy bir his.
Olovga aylanib dunyo ko'ksida
Ot qo'yib, oldinda borar To'maris.
Kir dahshat ichida qotmish bir nafas:
– Bu axir ayolmas, bu axir ofat.
Qo'shinlar to'qnashdi. Uchar nayzalar,
Ming-minglab jangchilar olmish jarohat.
O, o'lim nayzasi, guldek umrning
Necha ming-mingining boshini yedi.
Hyerodot yozadi: bor janglar aro.
Bu jang og'ir edi, dahshatli edi.
Kamondan o'q uchar, olisda dushman.
Har ikki tomonda to'xtamas savash.



Nayzalar tugadi. Daryo bo'ldi qon,
Endi jang xanjar-u nayza aralash.
Uzoq davom etar qirg'inbarot jang.
G'alaba o'zidan bermaydi darak.

Kir tahlika ichra uni kuzatar,
Ko'nglida g'ashlik bor, bo'lib jonsarak.
Xayol ketib borar olis Eronga,
O'lim vahshatidan bo'lganicha lol.
Nogoh ko'z o'ngida yarq etib paydo
Bir zamon zindonga tashlagani chol:
– Shohim, degan edi, umr ko'ring uzoq,
Panjangiz zarbidan ojiz qolur fil.
Ayolga o'q otmang, kurashmang axir,
Hukmron erursiz sal kam o'ttiz yil.
Bisyor to'kildi qon ne yurtlar aro,
Onalar tufroqni changallab qoldi.
Farzand dog'i, degan shum qismat axir,
Ne-ne onalarni qahriga oldi.
To'maris – u ayol, u – ona... Vatān...
Ona arslon kabi kuchli, qahrkor.
Onalarga sazo bermang, bir kuni
Ulug' onalarning uvoli ham bor...
Qonxo'r Kir seskanib ketdi bir nafas,
Qiyomat qo'pardiyer uzra bu dam.
– Qani, lashkarlarim, qiring ayamay,
Tirik qolmasin, hyey, birorta odam.
To'marisni tirik tutmoqlik kerak.
Qudratim oldida dunyosi bekor.
Jangchilar jon olib, jon berar, evoh,
...xanjarlar yaltirar o'chli, qasoskor.
Ajal nayzalari shuvillab uchar,
Eron jangchilari birma-bir o'lar,
Vatandan uzoqda ochiq ko'ziga
Ozorli, begona tufroq to'kilar.
Ufq tomon horg'in og'adi quyosh,



Qon kabi nurlari sochilib ketar.
Ko'zlarida qondek yaltiraydi yosh,
Endi quyoshligin u ham unutar.
– O, odam bolasi,
Nafs bandasi.
Ona zamin nechun botadi qonga.
O, odam bolasi, jannatiy go'sha
Nahot kamlik qilur sendek insonga.
O, odam bolasi, bu ochiq ko'zing
Qachon oltinlarga, tufroqqa to'yar?
Nahot Odam Ato zurriyodlari
Bir-birin qo'lida o'lar.
O, odam bolasi...
Savash davom etar, murdalar tog'i
Ortib boraverar, bilmay nihoya...
Eroniy, massaget jangchilari ham
Chekinmas ortiga bilonihoya.
Ufq tomon horg'in og'adi quyosh.
Samoda kezadi qop-qora bulut...
Eroniylar bir-bir qirilib borar,
Qo'li baland kelib borar massaget.
To'maris misoli chaqmoqdek yelar,
Ipak sochlarida yonar alanga.
– Botirlarim, mening bahodirlarim;
G'alaba eltamiz ona Vatanga.
Uyulib boradi murdalar tog'i,
Bu jang janglar aro dahshatli axir.
Massaget qilichin zarbidan-nogoh;
Yo'qlikka uchadi tajovuzkor Kir.
Son-sanoqsiz murda ... xuddi gul kabi...
O'n gulidan biri ochilmagan qalb...
Biri ingrab yotar, onajon, deya,
Biri jon beradi vujudi titrab.
Nihoyat g'alaba...
Ko'tarilar tug'.



Massagetlar zarra-zarra tolmadi.

Mag'lub bo'ldi g'anim, maydon ichida.

Eron jangchilari tirik qolmadi.

To'maris amr etar bahodirlarga:

– G'alaba mayidan bo'lingiz sarxush.

O'liklar ichidan podshohni izlang,

Ko'rayotgan bo'lsa kerak shirin tush.

Botirlarim mening, bahodirlarim,

Mardlik boshingizga kiydiribdi toj.

Endi qasamimni bajarmoq kerak:

G'anim qoni bilan liq to'lsin sanoch...

Yigitlar oralar jang maydonini,

Qalashib yotadi murdalar axir.

Nogoh, bir chekkada ko'zida qo'rquv

O'lib yotar edi makkor, qonxo'r Kir.

Boshini tanidan judo qildilar,

Olib keltirdilar To'maris tomon.

Kirning ko'zlarida – ochiq ko'zida

Tahlika va qo'rquv edi hukmron.

– Qasam ichgan edim, ey bosqinchi Kir,

Seni to'ydiraman degandim qonga.

Yana aytgan edim, tinchgina yashab,

Qadam qo'yma, deya bizning makonga.

Yana Ayolman men, Onaman deya

Seni ulug', deya, etgandim qadr.

Axir bilmasmiding Vatan onada,

Ona esa albat shul Vatandadir.

Bolamni ko'ksimdan olding sug'urib,

Salkam o'ttiz yilcha to'ymading qonga.

Senga aytgan edim, tinchgina yashab


Qadam qo'yma, deya ona makonga.

Endi qon ich to'yib, sarxush bo'l qondan,


Ochofat ko'zlaring ham to'ysin qonga.

Senga aytgan edim, tinchgina yashab,

Qadam qo'yma, deya bizning makonga.



To'maris so'zim bul: ey qonxo'r, zolim,
Qo'rquy-to'la ko'zing sen kattaroq och!
Ichishing, yemishing endi qon bo'lsin,
Endi makon bo'lsin qon-to'la sanoch!
To'maris shunday deb mag'rur va ozod,
Tik boqib olddagi minglarcha jonga.
Kirning ushlagancha sochidan azod
Mal'un kallasini botirdi qonga.
So'ng ot choptirgancha ketaverdi ul,
Ona Vatanini ko'ksiga bosib.
Erkning tug'rosini yurakka qadab,
Quyosh nurlariga sochi uyqoshib...
Hamon ketayotir ot choptirib ul,
Massaget tug'ini ko'targancha sha'n.
Axir bitta nomi ona To'maris,
Yana bitta nomi ona va V A T A N!



XOTIMA

Araks guvillab ufqqa oqar,
To'liqlar sohilni o'padi bot-bot.
Uning sohilida «Tarix»ni tutib
Daryodan ko'z uzmay turar Hyerodot.

Go'zal To'marisning sobit siymosi
Yunon, Rim dunyosin solar hayratga.
Jahon tarixiga dadil kirib u,
Jilmayib yuz tutdi abadiyatga.

Aligeri Dante. Italian xalqi
Ulug' shoirini ko'zigā sūrar: —
«Ilohiy komediya», «A'rof» ko'ksida
To'maris quyoshdek yuksakda turar.

Angliya. Shekspir dahosi ul dam
Ta'zim va hayratga buradi yuzin.
O'zni jasoratga chorlaydi har dil
Ko'rgach To'marisning porloq yulduzin.

Fransiya. Sahna. Kir talvasada.
To'maris zarbida qismati beshak.
«To'maris ozodlik, Vatan timsoli,
To'maris ular-chun — bu Janna Dark!»




*Shunday. Bu dunyoviy e'tirof asli.
Massaget tug'ini ko'kka tutgan sha'n.
Axir uning nomi ona To'maris,
Yana bitta nomi ona va Vatan...*

XIZR BULOG'I

*Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri,
ulug' Alisher Navoiy tavalludining
550 yilligiga ehtirom bilan bag'ishlayman*

BAG'ISHLOV

Har tong uyg'onaman: bir mo'jizani entikib-entikib
kutgan yuragim hayrat-la qalqigan nigohlarini deraza ortida
guvillab yotgan intiq bir dunyoga tashlar xotirjam. Bo'rtgan
kurtaklarning bo'g'zidagi so'z, tulpor yollarining asov epkini,
lolaqizgaldoqning o'jar yolqini, sho'xchan shabbodaning
qaysar qo'llari, chuchmo'maning ma'yus qarashlaridan topa
olmaydi u kutgan dunyoni... Qartaygan tollarning vazmin
shiviri, o'smir novdalarning dagal so'zlari, g'unchalarning
titrab bosh egishlari, atirgul labida toshgan xandalar u kutgan
sohirdan bermaydi darak. Ko'ngil ko'zlarini bosgan mudroq
to'r, yurak kunjariga joylashgan ma'jun bu sirli dunyoning
epkinlaridan baxramand etmoqchi emas r u h i m n i ...



To'lg'anib, ingranib yotadi yurak, loqaydlik to'lining panjalarida o'zi kutgan ISHQdan juda o'l i s d a... U kutgan mo'jiza qaylarda o'zi? Har tong subhi sodiq etaklariga nega u boladay kelmas ergashib?

Har tong yurak-o'jar, betizgin bola – o'zi kutgan I SH Q ni qarshilay deya, deraza qanotin ochaverar lang... Va shunda falakdan yog'ilar-da nur, nurlarga belanib bir sirli ohang, yurakni bag'riga bosar ohista. Yurak entikadi, kengayib ketar, o'zi sevib, suyib, ming bor termulgan, quyosh nurlariga ming bor cho'milgan jilvali, erkali ufq sinlari... Turkiy jilolarda tovlangan ohang – buyuk tafakkurning buyuk qo'shig'i – «QARO KO'ZIM», deya suyar yurakni... Bu qo'shiq qanoti silkingani on, minglab farishtalar duvva qo'zg'alib, ipak qanotlarin yelpib noz ila ko'ngil bo'stonida qo'zg'ar galayon. Yurakni zanjirlab, qiynab yotgan – to'r – erkning yovuz, qoradil qushandasi parchalanib ketar mayda va mayda... Endi guvillagan intiq bir dunyo yurakning poyiga ingranib kelib, sochib yuboradi bor dardlarini...


Bo'rtgan kurtaklarning bo'g'zidagi so'z keskirroq jaranglar tun og'ushida, endi izg'iriga yuzma-yuz, dadil...

Turkiy jilolarda tovlangan ohang – buyuk tafakkurning buyuk qo'shig'i – «QARO KO'ZIM», deya suygach yurakni tulpor yollarining asov epkini korishib ketadi o'jar yolqin-la va shamolning qaysar qanotlarida E R K ni ufqlarga eltar behadik...

Qartaygan tollar ham endi xotirjam o'smir novdalarning dag'al so'ziga quloq tutadilar bexavotir, tinch... G'unchalar titramay qo'yadilar-u, atirgul xandasin mo'min va yuvvosh bir chetda havas-la kuzatadilar...

Yurak kunjidagi ming ko'zli buloq – asrlar osharoq ko'zin tosh bosgan – hislarning musaffo, erka bulog'i – ko'ngil bog'lariga oqarlar yuvvosh...

Ohang oqaverar har subxi sodiq, ko'ngil ko'zi yarq-yarq ochilaverar, xalqning ko'zidagi mudroq uyqu ham tarqalar ohista tuman sinlari...



Shunda injiq R U H I M shodlikdan titrab, ko'zidan dardlarning seli tirqirab, nurli poyingizga qo'yadi sokin, davr shamolida oqargan boshin... So'ng tavob aylaydi besh asr osha nurlar to'qinida hilpirab kelib, olamni nurlarga chayib oluvchi bebaho dur bo'lmish xush kalominingiz... Etaklaringizni ko'zga surar-u, padarni ko'rganda dilda borini to'lib-toshib bayon etguvchi munglig' bir g'arib farzanddek so'z boshlar asta:

* * *


Mir Alisher hazratlari falakning gardishi birla o'zi yakqalam qilgan turkigo'y tuproqqa quyoshdek yarqirab qadam qo'ydi. Bepoyon kenglikda bir tup yam-yashil daraxt quyosh ila so'zlashmoqchiday, sirli shovullab ko'kka yuz tutgan edi. Daraxt poyida ersa ajib chashma andoq mavj ila chuldirab-qaynab-yotardi.

— Voajab, — xayolga toldi hazrat. Nechun bu qadar hududsiz kenglik... Va aning ko'ksida yolg'izgina daraxt? O'zga daraxtlarga ne bo'lubdur, nechun bu yolg'iz daraxt ham sirga, ham hasratga to'lubdur.. Bu qandoq chashmadurkim, to'qinlarining mavji bo'lak? Toliqidimmu, bir nafasgina shu buloq bo'yinda o'ltiray!


Hazrat bir zumgina xayolga toldi,
Ul ulkan daraxtga suyanaqoldi.
Kimsasiz kenglikda bag'ri uvishdi,
Ko'zi olisdagi sharpaga tushdi.
Quyosh seli bot-bot jimirlagan dam,
Zo'rg'a sudralardi bir juft soya ham,
— Ajab, ul sarobmu, ko'zumga to'lur,
Bu sokin kenglikda odam ne qilur?
Hazrat taajjubin bir zum unutdi:
Ko'rgan manzaradan yaqosin tutdi:
Tashnalik komida yona va yona
Zo'rg'a odimlardi parishon ona.



Qo'lida ingrangan go'dak bor edi,
 Go'dak nelardandir beqaror edi.
 Azob changalida qiynalardi jon,
 Go'dak chehrasidan qochgan edi qon.
 Uzun kipriklari bilonihoya
 Solgan edi rangpar yuziga soya.
 Bu murg'ak vujudga nazar solgan on
 Hattoki tosh yurak bo'lardi vayron.
 Hazrat nogoh titrab o'rnidan turdi,
 Parishon ayolning qoshiga yurdi.
 Bo'g'ziga alamlar to'foni toshib,
 Go'dakni ilkiga oldi u shoshib.
 Dedi: «Jigarbandim, ko'zimning nuri,
 Yuragim mulkining ey, tanho duri!
 Men ko'kka ko'targan turkigo'y tilim,
 Qalamim egasi, ey jajji elim!
 Shu tuprok sohibi, yurtning sarvari.
 Hayot ganjinasin toza gavhari.
 Hali aytolmagan sehrli so'zim,
 Qoni jonga payvand, ey qora ko'zim!
 Bu ne sinoatki, bo'lib qoldim lol,
 Kiprik ko'tarolmay, yotibsan behol?»
 Buloq mavjlaridan taralgach epkin
 Horg'in ona oldi astagina tin.
 Buloq suvlaridan hovuchlab oldi,
 Yutoqib-yutoqib simiraqoldi.
 Go'dak lablariga tomchilatdi suv,
 Ko'z yoshlari suvga tomganicha duv.
 Bu hol jism-u jonin qaqshatib yana
 Shoir yuragiga soldi po'rtana.
 Dedi: qaydin kelib, qayga ketursiz.
 Bu kimsasiz cho'lda tanho netursiz?
 Bormi boshpanangiz, turar joyingiz,
 Quyoshingiz bormi, bormi oyingiz?
 Yulduzingiz bormi, bormi bog'ingiz,



Ko'ksingizni baland qilgan tog'ingiz?
Allangiz aytgani tilingiz bormi,
Yaxshi-yomon kunda elingiz bormi?
Bag'ringiz but ersa, tashna-yu bedor,
Nechun bu sahroda kezasiz zor-zor?
Falak ne gunohni qismatda bitmish,
Qay kas sizni yo'qlik yurtiga eltmish?
Ayol ko'z solsaki, bir nuroniy zot,
Ko'zlarida azob solgancha faryod.
Bir munis og'adek ahvol so'raydi.
Dardlaringni ayt, deb savol so'raydi.
Horg'in mijjalari bo'lganicha nam
Asta so'z boshladi shunda ayol dam:
Ey, quyosh ruhsorli, tabarruk inson
Dardim tinglamoqqa gar bo'lsa imkon.
Dardlari daryoday to'lib yuribman,
Boshimni toshlarga urib yuribman.
Bu uzun qissamning g'amdir doyasi,
Bu cheksiz alamning yo'q nihoyasi.
Hayotim – shu vahshiy kenglikdek karaxt,
Umidim – undagi shu yolg'iz daraxt.
Qismatim – miltillab yonuvchi chiroq,
Ko'zim yoshlaridir bu biyron buloq.
Boisi: go'dagim xasta-yu, nolon,
Go'yo: kalxat ilgan sho'rlik polopon.
Tun-u kun azobdan qarori yo'qdir,
Ona demoqlikka majoli yo'qdir.
Bir qattol xastalik changalida u
Chechakdek kun sayin so'lib boradir.
... Men bir g'uncha edim, shabnamdek toza,
Husnim ellar ichra edi ovoza.
Yurtimda kiyikdek yugurgan chog'lar,
Kuchga kuch qo'shardi asl tuproqlar.
Bog'lar sharbatlarga to'lib yotardi,
Gullar shod-u xandon kulib yotardi,



Qushlar olislarga uchib ketmasdi,
O'zga chamanlarga qo'shiq bitmasdi.
Bahor chog'i – ilik uzildi chog'lar,
Jonga malham edi turfa giyohlar.
Hosil mo'lligidan qaddi bo'lib dol
Qizarib yotardi cho'ng shaftolizor.
Tandirdan uzilib dasta-dasta non
Mehmonga muntazir fayzli dasturxon.
Ona yuragiga solmay nolalar
Kiyikdek yuguruk edi bolalar.
Oy nurlari yog'gan sohillarda-ku
O'ynab yurishardi bedard, beqayg'u.
So'ng shirin allalar tinglab, vaqti chog',
Uxlab qolishardi quchishib inoq.
Men ham bir xonadon bekasi edim,
Suygan yuragimning erkasi edim.
Inson bilmas ekan, qismatda ne bor,
Bir payt ters aylandi charxi kajraftor.
Sir-u asror to'la zamon aylandi,
Aylanganda ham ko'p yomon aylandi...
Shayton yuraklarda g'avg'o boshladi,
Millat orasiga nifoq tashladi.
Shaytonlar ming fitna tuzaverdilar,
Eng sara gullarni uzaverdilar.
Ne-ne tillo boshlar kesilib ketdi,
Kabrlari pinhon bosilib ketdi.
Eng ulkan chinorlar o'tin bo'ldilar,
Alangasi pinhon tutun bo'ldilar.
Bu tillo tuproqda qiyomat qo'pti.
Shayton sotqinlikning yuzidan o'pdi.
Asl buloqlarning suvi aynadi,
Tillo tuprog'imning sho'ri qaynadi.
Daryolar buralib oqmayin qo'ydi,
Inson bir-biriga boqmayin qo'ydi.
Endi sof havolar bu tong-la mahshar



Boshimizdan quydi ming turfa zahar.
Onalar daladan kelmay qo'ydilar,
Go'daklar qulunday yelmay qo'ydilar.
Bir payt ayol ersa muhabbat guli,
Endi nomi bo'ldi tiriklik quli.
Ular o'ttizida o'tin bo'ldilar,
Armon vodiysida tutun bo'ldilar.
Bir payt visoliga Majnun bo'lgan zor
Tuproqqa teng bo'ldi Laylidek dildor.
Zahar gul vujudni ayamay o'ydi,
Bola ona sutin emmayin qo'ydi.
Ayol qal'asiga putur ketgan on
Dod, deb sohilini tark etdi ummon.
Ayol quriyverdi, ummon quriydi.
Yorab, suv ichinda baliq chiriydi.
Yer-u ko'kni tutdi bir unsiz faryod,
Ammo topilmadi xaloskor bir zot.
Go'daklar sanoqsiz bekafan ketdi,
Yo'qlik sahrosiga bevatan ketdi.
Sut hidi anqigan bahodirlarim,
Boburlarim mening, oh, boburlarim.
Xusn mulklarining toza gullari,
Shu tuproqning jajji, yo'q bulbullari.
Bugun shu kenglikda yotishar qator,
Ular orasinda to'rtta o'g'lim bor».
Ona uh, tortdi-yu, qusdi laxta qon:
– Hazrat, bu kenglikmas, bu... bu... qabriston.
Bunda yotgan chechak sanog'in bilmas
Hamon keladurlar, adog'in bilmas.
Xastalik har lahza yo'lga chiqadir,
U ona-bolani darrov yiqadir.
Uning liboslari ranggo-rangg-u, mo'l,
Sariqdur; terlama, kamqonlikday ko'l.
Ajal ushbu ko'lni shimirib to'ymas
Qonli xanjarini qo'lidan qo'ymas.



Qarshingizda yotgan so'nggi madorim,
Ollodan tilagan so'nggi oh-zorim.
Ingrab-ingrab, ko'kka o'rlagan nolam,
Hayotim chirog'i – beshinchi bolam.
To'rttasini tuproq bag'riga oldi,
Mening yuragimga ajinlar soldi.
Xastalik havodan, tuproqdan yuqar,
Nopokdan yuqadir, yaproqdan yuqar.
Ta'magirdan yuqar, pesdan yuqadi.
Erkak shaklidagi hezdan yuqadi.
Donolar bu holdan ojiz turadi:
Hamon harom kasri gulga uradi.
Ulkan harom yuki tuproqqa tushdi,
Endi ikki nisbat yomon qorishdi.
Lek bu holdan hech kim chekmayin sitam,
Hamon yashaydurlar baxtli, xotirjam.
Netay, so'nggi gulim so'lib bormoqda
Qoracho'g'ida nur so'nib bormoqda.
U endi giyohdek yiqilib borar,
Parcha bag'irchasi titilib borar.
U biyron qushchadek sayrab yurardi,
Jonim pardasida yayrab yurardi.
Jarohatlarimga yagona malham,
So'nggi umidim ul-jayron o'g'ilcham.
Yana qattol dardning komiga tushdi
Yana g'am-alamning domiga tushdi.
Endi sitamlarga qilolmam toqat,
Men bir quriyotgan bechora daraxt.
Kunni tunga, tunni tongga ulayman,
Yolg'iz Ollohimdan madad so'rayman.
Bu tun ham boshida o'tirdim bedor,
Bu tun ham boshida yig'ladim zor-zor.
Shunda ayni tong ham yorishayotgan dam,
Xobimga ko'rinib bir nurli odam,
Dedikim: tur bo'tam, g'amlaring ketdi.



Nolayi, zorlaring xudoga yetdi.
Erta tongda turib, tezroq yo'lga tush,
Parvozga shay bo'lgan misoli bir qush,
Xasta go'dagingni bag'ringga bosgin,
Yo'l anjomlaringni yoningga osgin.
Esa boshlagan dam shamol sar-sari
Yo'l olgin kengliklar vodiysi sari.
Ammo holdan toyib yiqila ko'rma,
Tushkunlik chohiga tiqila ko'rma.
Quyosh yondirsa-da, horitsa yo'l ham.
Orqaga qaramay, ketaver ildam.
Ota-bobolaring yod aylab yo'l yur,
Ularning ruhini shod aylab yo'l yur.
Alla aytgan chog'ing eslab yuraver,
Aytolmagan chog'ing eslab yuraver.
Gunohingni bir-bir yodingdan o'tkar,
Savobingni bir-bir yodingdan o'tkar.
Kuygan chog'laringni eslab yo'l yurgin,
Kulgan chog'laringni eslab yo'l yurgin.
Mumtoz gazallarni aytib yo'l yurgin,
Armonlaringni bayt aylab yo'l yurgin.
Yurtingga tolelar tilab yo'l yurgin,
Kasrlar, somelar tilab yo'l yurgin.
Keksalarga imon tilab yo'l yurgin,
Erkaklarga vijdon tilab yo'l yurgin.
Tilsizlarga tilin tilab yo'l yurgin,
Johillarga bilim tilab yo'l yurgin.
Ketaver, Ka'bada odamlar bari
Shaytonga tosh otgan odam singari.
Go'dagingga umr tilab yo'l yurgin,
Qosh-u ko'uzlarini silab yo'l yurgin.
Nogoh, sen manzilga yetgan o'sha vaqt
Ko'zingga tashlanur ulkan bir daraxt.
Ul sirli vodiya yagona xoqon:
Mag'ryr va baquvvat, yashildur chunon.



Ko'zing tushgan zahot yayraydi joning,
Jimirlab oqadi tomirda qoning.

Azob vujudingni tark eta boshlar,
Go'yo yuragingga qo'nar quyoshlar.

Daraxt tomirlarin o'pib dudog'i
Poyida qaynaydi Xizr bulog'i.

Mangu barxayot u – yashillik tug'i
Ajdodlarimizning barhayot ruhi.

Har qatra tomchisi joningga davo,
Turkiy lisondir u – toza, musaffo.

To'liqini jimirlab, ko'zingni olur,
Bag'ringda bir sirli epkin qo'zg'olur.

Bemor go'daging ham aylagil serob,
Va Hazrat poyini aylagil tavob.

Go'daging shul damdan kuchga to'lgusi,
Avlodlaring darddan xalos bo'lgusi.

Bir ilohiy quvvat jonimni eltdi:

U... oppoq nurlarga qo'shilib ketdi.

Men esa... bir sirli madadga to'ldim,

So'nggi kuchim ila manzilga keldim.

Behad mutaassir bo'lgancha Hazrat

– Isming ne, qizim! – deb so'rdilar faqat.

Ona lablaridan uchdi shu kalom:

– Go'dagim Farhoddur, o'zim... Dilorom...

Mir Alisher hazratlari bir so'z demay, entikib-entikib qaynab yotgan buloqdan ko'z uzmadilar. Shunda quloqlariga allaqanday sas – temir jarangi urilganday bo'ldi. Atrofga qaradilar: hech kim yo'q. Nogoh uzoqdan karvon ko'zga chalindi. Ammo yuk ortilgan tevalarni boshqaruvchi karvonboshi yo'q edi. Karvon ortida esa... qo'llariga kishan solingan bir ayol kelardi...

Karvon o'z yo'lidan ketib boradur,

Yukini jimgina eltub boradur.



Kishan zanjirlari jaranglagan tob
Tevalar yurishin aylaydi shitob.
Ayol o'tayotib aytdi maylini:
– Bobo, suvingizdan ichsam maylimi?
O'zim ichay desam, qo'limda band bor,
Qo'l-u oyog'imdan ketgan ixtiyor.
Bir qultum suv hayot bersin jonimga
So'ng tinchgina yetay o'z makonimga».
Hazrat so'z aytolmay, lol qoldi bu dam,
Raso qomatlari dol koldi bu dam.
– Falak, bu ishingdan ko'ngling to'lurmi,
Ayol qo'linda ham kishan bo'lurmi?
Bu kenglik vodiysi sirlar konimi?
Yo chigal qismatlar panohbonimi?
Ko'rganim o'ngmikan, yo tushmi, hayhot,


Qayga boshlab ketur meni xayolot?
So'ng dedi: holingdan bizni ayon et,
Kishan sirlarini bir-bir bayon et,
Nechun qismatingda bunchalik qaro,
Gul umring o'tmoqda kishanlar aro?
– Qismat xattotidan xatolig' o'tmish,
Mening qismatimni qaroda bitmish.
Asli go'dakligim alamga mahkum:
Hanuz bilolmayman, ota-onam kim?
Mendan yuz o'girib tashlab ketmishlar,
Yo'rgakka bir parcha maktub bitmishlar.
Yozibmishkim: bizni sharmisor etar,
Olomon ichinda bizni xor etar.
Kimga kerak ersa, indamay olsin.
Mayliga, savobi farzand qilolsin.
Demishkim: ko'plarku farzand gadosi,
Bizlar uchun esa yoshlik xatosi...
Men ersam – bir umr qismati qaro
O'sdim o'zim kabi go'daklar aro.
Ona qo'llariga zor bo'lib o'sdim.



Ota qo'llariga zor bo'lib o'sdim.
Tunlari alladan uzoq uxladim,
Sut hididan bo'lib yiroq uxladim.
Ilk so'zimni tinglab ketdi shamollar,
Yo'qlik sari uni eltdi shamollar.
Tunda oymomaga suqlanib boqdim,
Onam, deb, ko'z yoshli daryoda oqdim.
Bayram kunlarida zor bo'lib kutdim;
Bu olamda goh yo'q, bor bo'lib kutdim.
Kunduz yostig'imda quyosh uxladi,
Tunlar yostigimda ko'z yosh uxladi.
Uzun sochlarimni o'rmadi hech kim,
Ko'zmunchoq ham taqib qo'ymadi hech kim.
Yonimizdan o'tsa baxtli onalar
Yig'lab qolaverdi yetimxonalar.
Ortimdan so'roqlab hech kim kelmadi,
Loaqal ko'ylak ham olib bermadi.
Hayit kunlari ham yod aylashmadi,
Yo'qlarni ham yo'qlab dod aylashmadi.
Yolg'iz suyanchimiz – yagona panoh
Topganimiz bo'ldi shu ona tuproq.
U ham o'zimizdek o'ksik, azobli,
Tajang va toliqqan, ko'zlari xobli.
Beorom, kambag'al, bitmas yumushi.
Boshida ming-minglab yetim tashvishi.
Qayga qadam bosmay, na alik, salom:
Ta'qib aylayverdi yetim degan nom.
Oh, bunday qismatning yuklari og'ir,
U nozik bo'yinni bo'g'ib turgan g'ul.
U ko'ngil chechagin kushandasidir,
U yovuz qismatning shum xandasidir.
Yarim o'liklig-u va yarim hayot,
Naq uchish chog'ida qirqilgan qanot.
Ko'zim gavhariga jo bo'lgan alam,
Endi-yozganida shart singan qalam.



Yorab, ulg'aydim. Dil armonga to'ldi,
Bir yorug' umidlari tug'ilmay o'ldi.
O'sdim. Qalbi majruh, umidi xasta,
Nigohlari ma'yus, bag'ri shikasta.
So'ng do'stlar orttirdim kuz gulidek jim,
Nasl-nasablari mendek noma'lum.
So'ng ilk bor may ichdim va bo'ldim sarxush,
Xuddi ko'rgan kabi go'yo sirli tush.
Olam ko'z o'ngimda ochdi turfa rang,
Bag'rida ming aldov va makkor ohang.
Jismimni ming turfa yo'lga boshladi,
Ko'rinmas zanjirga chirmab tashladi.
Shunda ham hech kimsa holim bilmadi,
Bilsa ham men uchun parvo qilmadi.
Men esa kim edim? Asli edim kim?
Haromzoda-go'dak — tirik bir yetim.
Oqqush mashinalar kelib-ketdilar,
Yana makoniga qushdek yetdilar.
Ularning dunyo-la yo'q edi ishi,
O'ylashga arzimay yetim tashvishi.
Na din-u imondan qo'rqmasdi ular,
Na yetim armonidan qo'rqmasdi ular.
Na millat dardini yelkaga olgan,
Na sayob hissidan jindek uyalgan.
Na o'z tuqqan elin qadr etadi,
Na ona tilida bir so'z bitadi.
Tilloga ko'milib yashaydi ular,
Sutlarga cho'milib yashaydi ular.
Pul uchun sotgancha din-imonini,
Xastalarga bermas burda nonini.
Ummon quriyversa, ne tashvishi bor,
Haqiqat toptalsa, nima ishi bor?
Tun-u kun aysh surib, ichib bodalar,
Jamiyatga berar haromzodalar.
Bir kun... yana bir ul qaro kunda.



Yulduzlarsiz osmon, zulmatli tunda,
Osmon bulutlardan kiyganda kafan,
Qalbim g'am-anduhga to'lib daf'atan.
Deraza yoniga kelib o'ltirdim,
Sarg'aygan xazonlar to'qilganda jim.
Sukut og'ushida g'arq bo'lib olam,
Qotib uxlab qolgach chigirtkalar ham,
Itlar ham ulimay qo'ygan o'shal on,
Huzurimga keldi notanish mehmon.
Kiyimlari qora, qoshlari qora,
Mung to'la nigohdan yurak sadpora.
Kirib keldi ma'yus, go'yoki xayol
Sochlari oqargan, g'amboda ayol.
Mening yuzlarimni silab ko'rishdi,
O'zimga saodat tilab ko'rishdi.
Nigohi bag'rimda bir olov yoqdi.
U nechundir menga to'ymayin boqdi.
Kipriklari tanish, ko'zlaritanish
Muloyim oquvchi so'zlari tanish.
Chehra chiziqlari, dudoqda pinhon---
Kulgi yashiringan – muncha qadrdon.
Hayrat yuragimning burjida qotdi,
Qalbidagi g'ashlik ortgandan ortdi.
Dedim: qay sir sizni bunga keturdi,
Mening bundaligim kimlar yeturdi?
Nechun qiynalasiz, nedur muddao,
Yanglish xonadonga kelibsizmi yo?
Sizni ne sir bu yon boshlab kelmishdir,
Qaro ko'zingizni yoshlab kelmishdir?
Nechun boshdan-oyoq libosdur qaro,
Kezasiz vayron-u va motamsaro.
Ayol ko'zlaridan sachrab ketdi dur:
– Qizim, shirin so'zing uchun tashakkur.
Hayot to'fonida sarson kemaman,
Na erliman, va yo na men bevaman.



Sendek ayni guldek yashnagan ul chog',
Mening qismatinga qo'yishgan tuzoq,
Bir nafs bandasin panjalarida,
Makkor xirs qo'lining xandalarida
Umrin gullarining barglari to'zdi,
Ul yovuz bandimdan ayamay uzdi.
Bir men emas baxti toptalgan jonlar,
Qurbonlar mo'l edi, behad qurbonlar.
G'unchalar quyoshga behad zor edi,
Uning nurlaridan umidvor edi.
Evoh, har birini uzib olishib,
Nafis barglarini loyga qorishib,
Otib ketardilar yo bog', yo toqqa,
Yo ko'lga va yoki jirkanch botqoqqa.
Ming turli qiynoqqa solishar edi,
Tovushidan rohat olishar edi.
So'ngra birdan izsiz ketardi qurbon,
Yo'qlik dunyosiga yetardi qurbon.
O, bunday razillik jazoga loyiq!
Ammo ko'r, kar va gung edi xaloyiq.
Bunday yovuzlikdan to'ldi paymona:
Biroq, vujudimda baxtsiz gumona.
Kun sayin o'zini bildirar bordi,
Jirkanch qismatimni mehrga qordi.
Ming turli xayollar bag'rim etdi chok:
Lek men uni qilgim kelmadi halok.
O, u qanday muhtoj edi onaga,
Uni tashlab ketdim yetimxonaga.
Yig'ladim, borlig'im g'amga o'radim,
Xudodan murg'akka shafqat so'radim.
Ammo u... go'dakdan qilganicha or,
Etak siltab chiqib ketdi badkirdor.
Keyin ne g'unchalar payhon bo'ldilar,
Yovuz panjasida qurbon bo'ldilar.
Achchiq qismatlardan qolib nishona



Bag'rin ochaverdi bu yetimxona.
Bilmam, bu dargohda necha ming-minglar
Adashib yuradur aka-singillar?

Men ersam... baxtimdan judo qilganni,

Umr yo'llarida gado qilganni,

Butun umr ta'qib aylab yuribman,

Ajal kalxatidek poylab yuribman.

Uni kutib olmish qaysi ostona,

Unga bag'rin ochmish qay bitta xona.

Bari menga beshta panjamdek ayon,

Bilsang, g'azablansa gar ona arslon,

Ko'p qismatlar foje topgusi yakun

Chunki, xun o'zi-chun talab qilar xun...

...Men ayolga boqib, boshdan uchib hush,

O'ltirsam pastlikda to'xtadi oqqush.

Qadamlar tovushin tingladi xona,

Kelayotgan o'sha – emas begona,

Ko'rkam, salobatli, boqar ulug'vor,

Qo'llarida gul-u, ko'zida ishq bor.

Qadrdon eshikni itarib shodon,

Dadil kirib keldi kutilgan mehmon.

Sipo, o'z qadrini tutguvchi baland,

Qo'lda oltin uzuk, bo'ynisida band.

Ishning ko'zin mohir biluvchi chaqqon,

Unvonlar sohibi – ancha bilimdon.

G'olib tabassum-la u menga boqib,

Xushbo'y gullarini poyimga sochib,

Tegrasiga bir qur tashladi nazar,

Ayol kimligidan mutloq bexabar,

Dedi: kim bu ayol, yangi hamxona?


– Opangmi, singlingmi yoki dugona?

Ayol shunda asta o'rnidan turdi,

Erkak tomon vazmin, qahrli yurdi.

Go'yo shart uzildi tarang turgan tor,

Erkakning ranglari bo'ldi naq devor.



– Taniding!

O'ylovdim tanimaysan deb;

Tanimoqni o'zga ko'rmaysan deb ep.

Shukur, xotirangda o'sha mudxish on,

Huzuringda hozir ikkita qurbon.

O'ylovding, men suvga cho'kib ketgandim,

Dardlarim daryoga to'kib ketgandim.

Sokin hayotingni qo'zg'atmay sira,

Mendan qolmagandi biror xotira.

Biroq, xatolaring naqadar ayanch,

Bugun qalbim to'la o'kinch,

O'ch-u ranj.

Baxtimning qotili – ikki qo'ling qon

Sensan, ey, g'urursiz manqurt bir inson.

Meni onalikdan judo qilgan sen,

Baxtning yo'llarida gado qilgan sen.

Bugun vayron aylab xonumonimni

Toptayapsan so'nggi – bor imkonimni.

Endi fikrim senga bo'lgandur ayon:

Bilsang, g'azablansa gar ona arslon.

Ko'p qismatlar foje topgusi yakun,

Chunki, xun o'zi-chun talab qilar xun...

Men qismati qaro – dalli devona,

Umr shamlarida kuygan parvona.

Tirik haykal misol turardim qotib

Aql-u shuurimni tamom yo'qotib.

Birdan yerga tushdi qop-qora libos,

Ayol go'yo vahshiy bo'rilarga xos.

Xirillab erkakka xanjarin soldi,

Sug'urar chog'ida bir burab oldi.

So'ngra dedi: endi o'chgaydir izing,

Bilasanmi kim bu?..

...Bu o'sha qizing?

Erkak ko'zlarida dahshat namoyon:

Yer-u ko'k lola qon, evoh, lola qon...



– Evoh, o‘zing kechir meni xudoyim,
Do‘zax qo‘njidan ham bo‘lmadi joyim.
So‘ng, ko‘zinga boqmay burgancha betin,
Bir bor oh tortdi-yu, jon berdi sekin.
Onam – tirik murda – quchgancha meni.
Asta yopib qo‘ydi otam ko‘zini.
So‘ng dedi: Endi ket, bunda ko‘p turma,
Bu qabih dunyoda uzoq o‘lturma.
Borar joyim aniq: bo‘ynimda gunoh,
Shukur, qulab ketdi yelkamdagi tog‘.
Sir-u asror to‘la zamon aylandi,
Aylanganda ham, oh, yomon aylandi.
Falak, darig‘ tutding mehringni yakkash,
Nahot, qiz otaga bo‘lurmi o‘ynash?
Falak, o‘z ishingdan ko‘ngling to‘lurmi,
Ayol qo‘linda ham kishan bo‘lurmi?
...O‘sha tun itlar ham ulimay qoldi.
Bebaxt onam otam yonida qoldi.
Onam – bu dunyoning baxtsiz bevasi,
Ayol qismatining qaro shevasi.
Bu yolg‘on dunyoning yomon asari,
Vafo shevasining yolg‘on asari.
Vujudimga pok suv sochib yubordi,
Ko‘zlarimni birdan ochib yubordi.
So‘ngra kelganlarga turganimcha jim
Dedim: har ikkisin o‘zim uldirdim.
Ko‘zim yoshlarini azob-la yutdim,
Qo‘limni indamay kishanga tutdim.
Endi ular har kun neni pichirlar,
Yurak kishanlari yomon g‘ichirlar.
Qo‘ldagi kishan ming ko‘tarsin faryod,
Yurak kishanlari bo‘lmasa barbod,
Sevgi g‘unchalari so‘laveradi,
Dunyo kishanlarga to‘laveradi.
Agar er ayolni mohtobim desa,



Hali o'qilmagan kitobim desa.
Desa: g'unchalarni o'ziga singil,
Atirgulni desa, egachimdur ul.
Do'stin ayolini desa nomahram,
Qo'li qadog'iga desaki, sanam...
Ayol azobini yelkaga olsa,
Har bir anduhiga tog'dek qo'zg'olsa.
Xasta go'dagiga tutsa jonini,
Mo'l-ko'l qilib qo'ysa dasturxonini.
Uni shamoldan ham qizg'anib yursa,
Boshidan lutf ila ming bor o'rgilsa,
Ayol ko'zlariga surma tortadi,
Dunyoning ko'zlari ravshan tortadi.
Ayol qoshlariga o'sma indirib,
Bir quchoq bolasi bag'rida qulib,
Bu hayot-bag'rida-kezar mastona,
Ertaklarda qolar ul yetimxona!
– Bobo, ruxsat bering, endi ketayin,
Tavba, degan manzilgohga yetayin.
Bu buloq yonida qolmayin uzoq,
Undan uyalaman ko'zim tushgan choq.
Yillar o'tar, oq-oq bo'lib kelaman.
Boshdan-oyoq men pok bo'lib kelaman.
Boray, quyosh tig'i jonimni eltdi,
Karvon ham anchayin olislab ketdi.
Hazrat mijjasida yaltiraydi dur,
– Gunohkorim, aytgil, isming ne erur!
Shamol olislardan keltiradi sas:
– Bobo, ismim Layli, Layli... Laylivash...

Mir Alisher hazratlari uzoq sukutga ketdilar. Buloq esa hamon biqir-biqir qaynayverdi, qaynayverdi, xasta go'dakning ko'zlariga asta nur inaverdi, inaverdi... Shu payt chang-to'zon ko'tarilib, qo'lida ko'za, sochlari kumush onaxon buloq tomon kelaverdilar. Hazratni ko'rib, ikki



bukilib salom berdilar. «Qaylardan soʻradik, onajon», – shoir onaning horgʻin chehrasiga achinib nazar tashladi. «O, bolaginam, uzoqdan, juda uzoqdan, – dedi kampir xoʻrsinib. – Quriyotgan ummon sohillaridan keldim. Bir qultum boʻlsa ham toza suv – obi Hayot olib ketgani keldim. «Suv olib ketgani sizdan koʻra yoshroqlar yoʻqmidi, onajon», – hazrat soqolini tutamlab jimib qoldilar. «E, bolam, nimasini aytay, ular koʻp, biroq koʻplari uzoq yoʻlga yaramaydi... Hali ham boʻlsa oʻzimdanda qolmay».

– U ulkan bahr nechuk qurimogʻi kerak? Axir, ikki daryoning hayotbaxsh suvlari qayga ketayapti? – shoir xavotirga tushdi.

– O, bolam, gap koʻp...

Ona mungli bosh chayqadi.
Emishkim, ul oshiq, navqiron Farhod,
Togʻ kesib, ochganmish «Bahrun-najot».
Obihayot talab necha tashna dil,
Farhod sanʼatiga boʻlgan emish qul.
Najot topgan emish minglab xaloyiq
Asrlar oʻtsa-da maqtovgʻa loyiq...
Necha asr avval oʻtsa-da bul ish
Joʻmard Farhod hamon olqish olarmish...
Bizda ham bor endi bir bahri ummon,
Ipak tomchilari xoʻp oromijon.
Baliqlar oʻynoqlab suzib yurardi,
Oqqushlar nozlanib yuzib yurardi.
Chagʻalaylar suvga toʻsh berib uchib,
Oʻynoqi toʻlqinlar qirgoqni quchib...
Kemalar baliqqa toʻlib qaytardi,
Qamishlar shovullab qoʻshiq aytardi,
Har baliqki, oyning kumush daftari
Suvdek oqar edi ul Shimol sari.
Behad chaqqon edi ummon bozori,
Laqqa-yu chavogʻi dardlarga dori.



Ona yurtimizning bebaho zari,
Turon ko'zlarining aziz gavhari.
Charaqlab yotardi quyoshday kulib,
Erkalanib, kulib, mavjlarga to'lib.
Ummon zarralarin sarsari shamol,
Qanotin qatida ko'rmayin malol,
Asta olislarga olib eltardi,
Tuproq lablariga hayot tutardi.
To'liqlar poyini o'pgan bolalar,
Quyoshga kumushlar sepgan bolalar.
Sog'lom, miqti, dono edilar bari,
Alpomishning jondek og'aynilari.
Va lek hech kim bilmas - nima bo'ladi,
Kimning paymonasi qachon to'ladi?
Olis yillar osha - to'lmayin dardga
Ummon ham tushgandi qop-qora xatga.
(Bizning yurtda goh-goh shunday bo'ladi,
Qog'oz turli ism-xatga to'ladi).
O'simlik shaklida keldi ayg'oqchi,
Yurt ganjiga pinhon tushgan qaroqchi.
Jayhun suvlariga sira to'ymadi,
Sayhunni ham yo'ldan urib qo'ymadi.
Onasiga chopgan ikki bo'taloq,
Ko'krakdan ajratib olinib shu choq,
O'zga ayol unga bo'lgandek ona,
Begona bo'lgandek mudom begona.
Ochko'z qumliklarga singib boradur,
Onasiga yetmay faryod soladur.
Suvni ichib-ichib to'ymadi paxta,
Tinmay ichishini qo'ymadi paxta.
Qancha oshgan sari ummon oh-zori
Qizib boraverdi jahon bozori.
Ummon faryodini sezgan har bir kas
Sirli sukut saqlab chiqarmadi sas.
Bu sukut sukutmas - bag'ri edi qon,



Bu sukut – ishonchni yutgan qabriston.

Ummon nolasiga to‘lib borardi,

Go‘daklari pinhon o‘lib borardi.

Ammo baliq ortgan kemalar hamon

Xushnud yo‘l olardi ul Shimol tomon.

Ummon atrofida qullar yurardi,

Sag‘irlar yurardi, tullar yurardi .

Kumush to‘lqinlarga-vujudin chayib,

Hamyoni tillodan – gullar yurardi.

Gohi tunlar dilni qaqshatgancha zor

Mungli qo‘shiq uchib qolardi bedor:

– Ummonginam – ko‘zginamning qorasi,

Tuprog‘inning aslgina bolasi.

Jonginangga jonim tutay, qurima,

Sen qurisang, ne deyman men elima?

Daryolardan bezgan el – ey, bezgan el,

Qulfatini avvaldanmi, sezgan el.

Olislarda ham adashib, uloqib,

Besamar ham kezgan eley, kezgan el.

Sezmadingmi, qurib borar Oroling...

Bolam, bu yurt sho‘ri azal mo‘l ekan,

Ko‘z yoshlari daryo, dengiz, ko‘l ekan.

Hanuz kosasining tagi oqarmay,

Hanuz yoqalari yoshdan ho‘l ekan.

Hanuz tillolari kimgadir nasib,

Itlar suyagin ham yurar talashib.

Oh, men kutgan qo‘rqinch kunlar ham yetdi,

Ummon sohilidan uzoqlab ketdi.

Jadal ketayotir, ko‘ksida zori,

Qo‘lida hilpirab qora ro‘moli.


Qamishlar yiqilib, yig‘lab qoladur,

Go‘daklar chirillab, big‘lab qoladur.

Ummon ila el-yurt rizqi ketadi,

Ummonning ummonday ishq i ketadi.

Bahodirlar ketar, sultonlar ketar,



Tug'ilajak Rustam dostonlar ketar.
Shoirlar ketadi, durlar ketadi,
Suv pãrasi misol hurlar ketadi.
Lolalar ko'z yoshga to'lib ketadir,
Keksalar sohilda o'lib ketadur.
Ummon tublarida to'zon qoladi,
Dardi qonli, bag'ri so'zon qoladi.
Qismatimiz yolg'iz sitamga loyiq,
Deb, bundan ketadi sho'rlik xaloyiq.
Yulduzlar ummonga vido aytadi,
Vidoni har shoh-u gado aytadi.
So'ng ko'z yosh to'kurlar, to'kurlar bari
Onasin o'ldirgan farzand singari.
Lek, ul ko'z yoshlarning qadri bo'lurmi?
O'sha ko'z yosh ila ummon to'lurmi?

...Bugun-chi, daryoning sohilida xor,
Xaloyiq yashaydi tomchi suvga zor.
Ular arta olmay ko'zin yoshini
Ummonga deb berar so'nggi oshini.
Oh... so'zlar dunyoga to'lib boradi,
Chora yo'q, u esa qurib boradi.
Yovuz nayrang bugun mevaday pishdi,
U baxtsiz ummonning chekiga tushdi.
Qurir Farhod qazib ketgan bahrlar,
Zaharga to'ladur ulkan nahrlar.
Sohillardan yitgan chechakday nolon,
Har yil qurir o'ttiz uch ming murg'ak jon.
Men – to'ridan go'ri yaqin bir ona,
Tonglarni orttirgum yonib pinhona.
Ammo ko'zim yoshi kimga kerakdur,
Asli inson umri mudxish ermakdir.
Tongdan to tungacha tinimi yo'qdir,
Orom olamida tinimi yo'qdir.
Qurigan ummonni to'ldirmoq qayda:
Ulkan ishonch tog'in ushatib mayda,



Tiriklik dardida qilib xomtalash,
O'zni yupatishib yurishar yakkash.
O'liklarga toshlar otib yurishar,
Bir-birin ayamay sotib yurishar.


Og'a inisining qoniga tashna,
Qonlar to'kilmoqda ham tog'-u dashtda.
Go'daklar qonini aylab lolazor,
Na shafqat, na jindek mehr hissi bor.
Top-toza tuproqni harom qildilar,
Og'a-ini nomin badnom qildilar...
Yorab, inson asli neni kutadi,
Ulkan gunoh yuki kimni tutadi?
Ummon qismatidan hamon umidvor:
Uzoq o'lkalarda erimaydi qor...
Ummon – ulkan bemor – yotar tashna lab,
Go'yo so'nggi kunin titraydi sanab,
Sohildagi qumlar g'amgin shivirlar,
Ummon izlarida sarob jimirlar.
Qushlar faryod chekib, uchib ketarlar

Keksalar azob-la yoqa tutarlar,
Ummon kundan kunga ketgancha holi
Sohilni o'pmoqqa yo'qdir majoli.
Endi sohil uzra qashqir yuradi,
Shamol tuzlar ila suhbat quradi.
Ona tuproq unsiz chekkancha alam,
Titrab shivirlaydi: Oh, bebaxt bolam!
Peshonasi sho'rim, kul bosgan cho'g'im,
Ertasidan nahot umidi yo'g'im!
Ne qilsam, dardingga topurman darmon,
Qurima, sabr qil, jonim bolajon...
...Hazrat, bizda ko'proq tuzmas, buzarlar,
So'ng tiklash rejasin qayta tuzarlar...
Biz yaxshi o'rgandik tarix titmoqni,
Hamon o'rganmadik qadr etmoqni...
Peshonamiz toshga tegsa-da ming bor

Nizo-yu, fitnadan ko'plar umidvor.
O'sh-u O'zganlarni botirib qonga,
O'lim vahshatini singdirib jonga
Jajji qizaloqning nomusi poymol,
Soylarning toshidek ne jonlar uvol,
Yovuz fitnalarning qurboni bo'ldi,
Uka yuvdi og'a qoniga qo'lni...
Bu mudhish alamlar siynam etdi chok,
Bir yonda ummonim bo'lmoqda halok...
Tun-u kun qumlikka tomib ko'z yoshim,
Bevaqt alamlardan oqardi boshim.
Toshdan-da qattiqmi ayolning joni?

Yo'q, yo'q, nurab borar umr qo'rgoni.
Hazrat, o'g'illardan umid ko'p edi,
~~Ammo bir donishmand shundoq deb edi:~~
– Magar, ayol mute bo'lsa jamiyat,
Sor lochin o'rniga qul berar faqat.
Uzoq yillar ayol xordan past erur,
Nomi osmonda-yu, qisqa dast erur.
Yigitlar-chi hamon tush ko'radilar,
O'zga jannatlarni xush ko'radilar.
Ko'nglida uyg'onmoq xayoli yo'qdir,
Go'yo vujudida madori yo'qdir.
G'irotlar o'g'loni erur yo'qlikning
Uzangida emas «poyi o'zbekning».
Bu dardlarni kimga aytsa bo'ladi,
Ehtimol, ko'z yosh-la Orol to'ladi?
Ona shunday deya mahzun, dilxasta,
Ko'zani buloqqa botirdi asta...


...Bu ko'hna dunyo ne sirlarning guvohi bo'lmagan?
Uning qorachig'larida o'z shahrining oltin darbozalari oltin
kalitini qo'sh qo'llab yogiylar qo'liga topshirgan sotqinlar
ham, toj-u taxt vasvasasida otasining qonini to'kkan



padarkushlar ham, o'z millatidan hazar qilib, umri so'ngida basir bo'lgan kimsalar ham muhrlanib qolgan. Vodarig', endilikda uning peshonasiga ona zaminining har qarichi zahar purkaguvchi, xasta go'daklarining son-sanog'i yo'q, shifobaxsh tomchilari butun bir xalqni halokatdan qutqarishi mumkin bo'lgan yagona najot dengizining fojiali ahvoli – uning quriyotganidan dahshatga tushayotgan xaloyiqning qirg'oqda achchiq-achchiq ko'z yosh to'kib o'tirishlarini ko'rish ham bitilgan ekan...

Hazrat Navoiy og'ir tin oldi. Yetmish ikki tomirini sirqiratib yuborgan pinhoni un buloq mavjlariga pinhon qorishib ketdi:


Zamin – bemor, bahr – bemor, ruh – bemor,
El ilkidan qachon ketmish ixtiyor?
Qayon solsam nigohimni – sir erur,
Nahot shayton haqiqatga pir erur?
Kalavanning sirli uchi qaydadir?
Umidlarim nahot mayda-maydadir?
Gullar emas, tikan gul-deb saylansa,
Nahot qismat tomoshoga aylansa?
Evoh, qaydin topgum ko'ngil oromin?
Turkiy nahot oqlamasa o'z nomin?
Daryolarin quritsa-yu, jim tursa,
Jasadlarin iritsa-yu, jim tursa...
Ayollari palaxmonning zo'r toshi
Nahot, qora dala yutar quyoshni?
Hazrat xuddi bola misol o'ksinib.
Turgan edi xayollarga yukinib,
Kelaverdi olislardan ikki jon,
Bir o'g'lon-u, bir munkaygan otaxon...
Otaxonning qomatlari dol edi,
Yetmishlarga borib qolgan chol edi.
Hazrat poyin ko'zlariga surdi ul.
Kalom bilmas o'g'lin turtib qo'ydi ul,



Ammo o'g'lon ko'zlarida sovuq nur,
Hazrat tomon nigoh tashlab u mag'rur,
Turaverdi, go'yo soqov — tili yo'q!
Salomi yo'q, kalomi yo'q, dili yo'q.
— Hazrat, dardim chorasizga o'xshaydi,
Yurak o'rni qonli tuzga o'xshaydi.
Jazillatar yuragimni bir armon;
Nahot shuncha azob tortsa kekxa jon?
Yuragimni kimga yorsam bo'ladi,
Vujudimga malham olsam bo'ladi.
Dardim og'ip, chora izlab yuribman,
Qariganda bo'zlab-bo'zlab yuribman.
Tug'ilgandan buyon siz ko'rgan go'dak,
Bir kalima so'z aytolmay, yo falak,
G'ussalarda bizni ado qildi-ku,
Bir luqmaga bizni gado qildi-ku...
Bilmam, qachon toza ruhi bo'g'ildi,
O'z tilidan yiroq bo'lib tug'ildi.
O'z tilida na salomni biladi,
Dilga malham xush kalomni biladi?
Maqomlardan peshonasi tirishar,
G'azal ne deb, bir chekkada qunishar?
Qodiriyning kimligini bilmaydi,
Abdulloni nazar-pisand qilmaydi,
Xotining sochin kesib qo'yadi,
Farzand qolib, kuchugini suyadi.
Ona xalqin savodsiz, deb kular ul,
Qabr uzra suhbat qurib yurar ul.
Aralashmas mahalla-ko'y to'yiga,
Meni eltmish qariyalar uyiga.
G'aribxona... umr shomi... Iztirob,
Peshonasi sho'rlar ichmish mayi nob...
Bir yilda bir xabar olmas holimdan,
Nahot, iblis bunyod bo'lmish qonimdan?
Nahot, padar ko'z yoshlarin qadri yo'q?



Nahot, dilda volidasin qabri yo'q,
Nahot, dilda ezgu hislar aldamchi,
Ko'zlaridan sachramasa bir tomchi?
Millat nadir, armon nadir, hushi yo'q,
Olamni suv bossa magar, ishi yo'q –
Gadolarning kaftiga tosh qo'yadi,
G'apb olamin poyiga bosh qo'yadi.
Ota titrab, juda uzoq yig'ladi,
Misli go'dak, ho'ngir-ho'ngir bo'zladi.
Soqolini yuvdi kumush yoshlari,
Titrab ketdi buloq tubi toshlari...
Ulkan daraxt ersa – poyida buloq
Quyosh ila so'zlashardi ko'p inoq.
Buloq ersa sharqirardi mastona
Epkinida orom olardi ona,
Xasta go'dak vujudini eltib xob,
Gohi ingrab, uxlardi go'yo mohtob.
Ko'zasini suvga to'ldirib xomush
O'ltirardi ona nedin faromush,
Kenglik esa sukunatda guvlardi,
Goh kulardi, gohi sirli ingrardi.
Buloq bo'ylariga qo'nib damodam
Suv ichib ketardi goho qushlar ham.
Nogoh ko'kdan enib behad mitti qush,
Shoirning qo'liga qo'ndi-yu, kumush
Tovush-la chuldirab ketdi u chunon.
Lol qotdi haykalga aylangan o'g'lon.
Qushning sayroqlari bir jahon edi,
Xasta vujudlarga zo'r darmon edi.
U sayragan sayin nurlar jimirlab,
Maysalar ko'karib, shamol shivirlab,
Ohular tog'lardan yugurib kelib,
Hazrat oyog'iga boshini qo'yib,
Mo'ltirab, ko'ziga termulib yuvosh,
To'kardilar achchiq va achchiq ko'z yosh.



Qushcha xonishlari oqavergan dam,
Xastalik qiynagan bemor go'dak ham,
Ko'zi yarq ochilib o'rnidan turdi,
Buloq mavjlariga hayron termuldi.
Hazrat qushcha patin silab ohista,
Uni ko'rgan kabi go'yoki tushda
Bir mungli g'azalday ko'z uzmay uzoq,
O'pib, erkalatib, tillashib inoq.
Asta sirli buloq yoniga bordi,
Bir hovuch suv olib sepib yubordi.
Nogoh bir sirli kuy yāngrab havoda,
Hazrat qarshisida xuddi samodan
Tushgan misol paydo bo'ldi bir hilqat,
Devqomat, burgut ko'z, mag'rur, xushsuvrat.
U Hazrat qo'lini ko'ziga bosdi:

«Shoirman» deb artdi ko'zidan yoshni.
So'ngra kengliklarga ko'z tashlab asta,
Qah-qah otib kuldi telba tovushda...
«Inim, shoir inim, qush bo'lgan inim
Sirli navolari tush bo'lgan inim.
Qachon ko'k toqiga chiqib ulgurding;
Nechun devonavor hayqirib kulding?
Bu go'zal joningga el sig'madimi?
Seni telba qilgan she'r sig'madimi?
So'zla, nafaslari alanga inim,
Nedir u joningga bermagan tinim?
Mungli navolarga aylantirgan kim,
Sirli sadolarga aylantirgan kim?
Tun-u kun oshyoning bulutli falak,
Chirqillab uchasan, mungli jonhalak?
Ko'zing qarog'ida dengiz chayqalur,
Gohi o't, gohida bir muz chayqalur.
Navolaring sehri olgudayin xush,
O'tdan binomisan, ey samandur qush?
Qay ruhsan, qay bog'ning so'lgan gulisan,



Qay elning navobaxsh, g'arib-ulisan?»

Shoir gohida hud, goh behud edi,

Nogoh, qalqib «Usmon Nosir – men, – dedi.

Evoh, ko'zlarida o't yongan Usmon,

Evoh, jigaridan qon tomgan Usmon,

Ohanglari yerga nasib turkigo'y,

Ash'orlari kimga aza, kimga to'y.

Ul ulug' Hazratning sarin nafasi,

Erk, deb xato qilgan tillo qafasni.

So'zla, Navoiyning g'arib inisi,

Loyqalagan suvlar bugun tinishib,

Ruhing bo'stonidan oqurlar ravon,

So'zla, yuragingda qolmasin armon!

Shoir so'z boshlashdan xiyol oldinroq,

Zabonsiz yigitga ko'z soldi uzoq.

U hamon parvosiz turardi qotib,

So'nggi yo'q xayollar qo'njiga botib.

Ko'z yosh soqolini yuvgan qariya,

Usmonga termular, ne aytar deya.

– Bu yigit bag'oyat og'ir bemor-ku,

Uning tuzalmog'i behad dushvor-ku.

Keksa boshdan-oyoq gunohga botgan,

O'glonni jaholat tubiga otgan

O'zidur. Endi ul nechun yosh to'kar,

Qasos qilichiga farzandin tutar.

Bu o'z millat gulin kemiruvchi qurt,

Unga na til aziz va na ona yurt.

Men uni tanidim,

Uning qo'li qon,

Mening ham umrimga zomin shu inson.


Ular yakka emas.

Ajriq misol ko'p,

Paytin poylab ko'zga suqib olib cho'p,

Hasad olovida yonib tun-u kun,

Iste'dod haqiga talab qilib xun,




Ig'volar to'qishib, yozib iflos xat,
Boyqushdek zulmatda kun ko'r ar faqat.
O'zagini qirqib huzur qilishar,
O'zlari qargadek umr ko'rishar...
Oh, meni alamlar, alamlar sotdi,
Yuragi qora, hamqalamlar sotdi.
Bu yurtga bulbullar kerakmas, dedi.
Ular bir-biriga tirgakmas, dedi.
Temur farzandlarin yer yutsin, dedi,
Gulzorni qop-qora zog' tutsin, dedi.
Chirqirasin deya Bobur arvohi
Qo'pormoq bo'ldilar haqiqat tog'in.
Imlolar o'zlarib, ko'zlar ko'r bo'ldi.
Qudratli el sindi, so'ngra xor bo'ldi.
Ne ahli donishlar ruhi mung'ayib,
Men kabi ko'klarda sarson-u g'arib,
Yurak alangasin qorlar o'chirdi,
Qismat bevaqt ajal mayin ichirdi.
Bizning qo'limizni qisganda kishan
Baayni shu choldek tomoshabinlar,
Holimiz beparvo aylab tomosho,
Hushhol may ichdilar, zavqlanib rosa.
Bizni «xalq dushmani» deb tinchidilar.
Bir burda non uchun sotilgan qullar.
So'ngra o'z tilidan aylashib hazar
Go'daklarin qonin, ming bor alhazar,
O'zga bir dunyoga eltdilar, evoh,
Ajrato olmay qayda savob-u, gunoh.
Allalardan uzoq o'sgan bolalar,
Ruhini pardalar to'sgan bolalar,
Bobolar tilidan bezgan bolalar,
Bobolar tilidan o'sdilar nari,
Ovloqda yovvoyi gullar sinlari.
Onasin qo'shig'in aytmagan kimsa,
O'z tilida bir so'z bitmagan kimsa,



Go'dagin haftada bir marta ko'rib,
 Yurgach, o'z zavqi-la u yallo qilib,
 Shashmaqom neligin u tush ko'rmasa,
 To'y-u hashamlarni u xush ko'rmasa,
 Farzand ne taxlitda volga yetar,
 Va albat padarni o'sha «uy»ga eltar.
 Bu dunyo hisobli, xunli, qasosli,
 Bir qo'lida gul-u, birida toshli.
 Bizda ko'p kimsalar shunday kun ko'rdi:
 «Ulug' bitiklarning zavoli urdi».

Usmon ko'zlarida qalqigan armon,
 Hasratlarga to'lgan bepoyon osmon,
 Shoirning bukilmas, pokiza ruhi,
 Ruhlarining ko'klarda qushdek guruhi,
 Hazratning tabarruk, inja ash'ori,
 Turkiyning kelajak, so'lmas bahori .
 Besh yuz yil berida uchrashdi yana,
 To'ylar, taraddudlar bo'lib bahona.

«Dardlig' ko'ngil – shu'lalig' chirog'. Yoshli ko'z –
 suvli buloq». Falakning gardishi ila o'zi yakqalam qilgan
 tuproqqa quyoshdek yarqirab qadam qo'ygan Mir Alisher
 hazratlari ul sirli daraxt soyasinda, Xizr bulog'i bo'yida
 dardlig' ko'ngillar iztiroblariga sherik bo'ldi. Abadiyat ilkida
 asrlar ham bir tutam. Yolg'iz hayot daraxtigina zavolga yuz
 tutmas. U abadiy yashnoq va yarqiroq. Mening xalqim esa bu
 daraxtning eng baquvvat shoxlari, chayir, ko'rkam, bo'ron-u
 dovullarda sinmaydigan, davr shamollarida o'zini bir-bir
 sinab oladigan ulug' xalq. Dardlig' ko'ngillardan taralgan
 munglig' shu'lalar esa o'z-o'zini qayta-qayta anglab, yana
 uyg'onayotgan jafokash xalqimning qalblaridan chiqqan
 umid elchilaridir. Zero, elchiga o'lim yo'q. U – haqiqatning
 yuzidagi riyo pardasini qo'rqmay ko'tarib tashlaydigan,
 dunyolarni dunyolarga bog'laydigan, xalq ko'ksini
 zangorlardan tezroq forig' qiladigan tabarruk shu'lalardir.




Turkiy deb atalmish tomirlardagi konni vaqti-vaqti bilan chehrasi kunduzi quyoshni, tunda oyni xijolat qiluvchi pokdomon ayollarimizning, onalarimizning yoshli ko'zlari – suvli buloqlari turli xor-u xasdan shaffof etib turajak. Zero, men yaqqalam qilgan el onasi – ona zaminiga faqat daholar yetkazib beruvchi mukarramalar ulkan muhabbatga yana qaytadi. Ulkan e'zozga yana volida bo'ladi. Chunki: «Chaqmoq kumushini yig'ib bo'lmas, yomg'ir ipini tutib bo'lmas...»

Hazrat hasratlarni uzoq tingladi,
El dardi cho'ngligin teran angladi.
Kumush soqolini uzoq tutamlab,
Tafakkur tahlilin bir joyga jamlab.
Xayol kemasida necha bor yuzib,
Tuman rejalarining turfasin tuzib,
Shitob ila buloq bo'yiga bordi:
Uni kenglik sari ochib yubordi...
Yashil yaproqlari shovullab chunon,
Sirli kenglikdagi yagona xoqon –
Daraxt ulkan shoxi quyoshga yetdi,
Borliq sirli nurdan lovullab ketdi.
Xasta go'dakni shart ko'tarib ozod,
Qonlari qaytadan bo'lsin, deb bunyod,
Hazrat buloq suvin unga ichirib,
Tandan dard qushlarin bir-bir uchirib,
Go'dakni oyoqqa qo'ydi u mahkam.
Ko'zlariga boqib, vazmin, xotirjam.
Peshonasin silab mehr ila suydi,
Onasin ilkiga xotirjam qo'ydi.
Baxtsiz ota-bola qoshida Hazrat,
Ulkan insof, imon tiladi faqat.
Marvarid tomchilar ko'kka sochilib,
Kenglikning ko'ksida gullar ochilib,
Ruhlar qo'zg'olishib, misoli ummon,
Yotdularin to'kib boshidan osmon.



Hazrat Alisherni etgali tavob
Oqib kelaverdi xaloyiq shitob.
Ular orasida jajji bir o'g'lon,
Qosh-ko'zi vujudga solguvchi tug'yon.
Hazrat besh dostoin ko'ksida edi,
Kelib: Bobo, sizni sog'indik, – dedi.
Ko'ksini alamlar ezgan Alisher,
Bevafo dunyodan bezgan Alisher,
Bu turkiy dunyoning tanho fidosi,
Bu tilning sig'ingan yolg'iz xudosi.
Ko'zlaridan yoshi tirqirab ketdi,
Inja ruh olami zirqirab ketdi.
Bolani bag'riga bosgancha shodon:
Dedi: «Xayriyatki, erka polopon,
Mening tilaklarim toza joningda,
Ko'zing qarog'ida, oqqan qoningda...
Tarqab ketayotir yuragimdan g'ash,
Sen Mo'min Mirzoga naqadar o'xshash!
– Mo'min Mirzom, mening suyuq shahzodam,
Tong nasimim, epkini hur shabbodam!
Javohirim, jajji turkim, lisonim,
She'riyatim, shoh g'azalim, imonim.
Bahodirim, sher yurakli o'glonim.
G'ussa to'zonida qolgan Turonim.
Devon tutgan qo'llaringni menga ber.
Turk eliga qayta kelgan bahodir.
O'z tilida sho'x sayragan bulbulcham
Shukur, hayot ekansan, toza g'uncham.
Asrlardan oshib kelgan toza ruh,
Kenglik osha xilpiragan turkiy tug!
Validamning sehr to'la allasi,
Navoiyning qonda qolgan bolasi.
Umidimki, men tiklagan ulug bog',
Zavol ko'rmay, porlagusi yashilroq!
Ulus yana xatolarin tuzatur,
Bir-biriga do'stlik qo'lin uzatur





Xizr buloq — turk-lisonin chashmasi,
Bir umrga qondirgusi tashnani.
Tomchilari ruh bog'ining jonidir,
O'zbek degan buyuk millat qonidir,
U tinmasa, olam gulga to'ladi,
Turk ko'ksida qayta chechak unadi.
Kengliklarda xanda qilib lolalar,
Dunyo so'rar shunda shoir bolalar».
... Hazrat qalamini o'g'longa tutdi,
So'ng oppoq nurlarga qo'shilib ketdi...



DUOGO‘YIM ONAM

Muqaddima

Mehriniso onam, Shafoat onam,
Nozik ayajonim – oy – oftoblarim.
O‘zbek onalari – hali hech kimsa
Tubiga yetmagan zo‘r kitoblarim!
Sizga bag‘ishlayman ushbu so‘zimni...

1

Jannat onalarning poyida emish...
Kavsar bulog‘i dil soyida emish.
«Bolam», deb duoga ochganida qo‘l
O‘n sakkiz ming olam joyida emish.
Duogo‘yim onam, farishtam onam,
Qushlardan saharxez sarishta onam,
Qulundek yuguruk – bilmagan tinim,
Bugun ro‘paramda o‘ltirasiz jim.
Tundek sochlaringiz allaqachon oq,
Jonimning ichida boshlaydi titroq.

...Osmonga sapchigan bir jayron edim. Ko‘zimda
yonardi sho‘x kavokiblar. Uzzukun tengqurlar sirdoshi edim.
Mushtlashib, xivichni ot qilib minib, soylarda cho‘milib,
tuproqqa botib, chilla quyoshida toblanib yotib, kelardim
kechqurun ust-u boshim chang, qorin och, chang kechib,
sudralib arang, xayr, deb o‘ynagan dala-yu qirga, shoshardim
jannatdek ona bag‘riga...



Onaning bag'ri u — qanday bag'ir u
Tengi, timsoli yo'q mehribon oshyon.
Bir-bora bosh qo'ysang issiq ko'ksiga
Egilib keladi ustringga osmon.
Onaning bag'ri u — qanday bag'ir u
Toshni ham istasa qilar mo'miyo.
Sehrli qo'llarin taftini qo'msab,
Boshin tutib turar qartaygan dunyo.
Onaning bag'ri u — qanday bag'ir u
Ismi saxovatmi, mehr yo karam.
Poyiga oqargan boshimni qo'ygum:
«Onadan tug'ilgan payg'ambarlar ham.»

BIRINCHI RIVOYAT

Rivoyat qilurlar: jannat mevasin
Teng ikkiga bo'lib yegan o'shal dam.
Haq amri-la undan quvilgan emish
Momo Havvo Ona, Hazrati Odam...
O'sha dam dunyoning zalvorli yuki
O'rin qoldirmayin sira savolga.
Teppa-teng ikkiga bo'lingan emish —
Yarmi erkakga-yu, yarmi Ayolga.
Muhabbat-u nafrat, quvonchu alam.
Visol ila hijron, sihat-u dard ham.
Quyosh-u oy sochgan nurlar ham toza,
Umr deb atalgan qo'hna darboza,
Ruh qushin sayrog'i... yuguruk xayol...
Bariga teng sherik bo'lganmish Ayol...
...Hindistonga tushdi Hazrati Odam
Qip-qizil Sarandib tog'iga tushdi.
Ko'z yosh to'kdi behad, tavbalar qildi
Iztirobning go'zal domiga tushdi.
Ko'z yoshlari tomgan har qarich yerdan
Chechaklar, yam-yashil maysalar undi.



Taqir toshlar arō ko'z yoshdek tiniq
Chanqoq qondiruvchi buloq ko'rindi
Dorivor giyohlar gurkirab o'sdi
Sarandib tog'ining har bir toshida
Bizga zamin degan zo'r meros qoldi
Odam Atomizning ko'zin yoshidan...
...Jidda tog'lariga tushdi onamiz.
Odam atomizning jufti haloli.
Dunyo ibtidosin tanho gavhari
Daryolarning boshi – tanho Ayoli.
Janobi Haq uni yaratmishida
Ko'rk hali bir butun – yuz ulush erdi.
Ulug' tangrim ko'rkning to'qson to'qqizin
Hazrat Onā – Momo Havvoga berdi...
Va unga sabr berdi va berdi hayo
Ilohiy ishq berdi nur kabi halol.
Arshda nikoh qildi, go'zal juft berdi,
Jannatga jufti-la yo'l oldi Ayol...
...Uch yuz yil u tanho sargardon kezdi,
Juftidan yiroqda to'kib ko'z yoshlar.
Istig'for ayladi Ayol g'amidan
Tars yorilib ketdi qoraygan toshlar.
Buloq suvi kabi tiniq jolalar,
Tomgan yerlarida sunbullar undi.
Qalampirmunchog'u, o'sma, xinoni
Hazrat Momo Havvo bizga ilindi.
Firoqning bu uzoq otashlarida
Ikki qutb arō ular chopdilar.
Ular bir-biri-chun yaralgan edi
Ular bir-birini yana topdilar
Odam vujudida yer sirri pinhon,
Tiriklik degani Momo Havvo ham.
Ulardan loaqal biri bo'lmasa
O'qidan chiqadi bu ko'hna olam.
...Onam, onajonim, nuri jahonim,



Uyimni to'ldirgan oftobim onam.
Mening Momo Havvom – boshim silagan
Qudratim, quvvatim, shitobim onam.
To'shakda jimgina dardini tortgan
Duogo'yim mani – bemorim onam.
Mening g'amlarimni ichiga yutgan
Sir to'la sandig'im, devorim onam.
O'zi yemay turib bizga yedirgan
Sabr-u qanoatli, himmatli onam.
Tog'lardan-da baland g'ururi bilan
Yashashni o'rgatgan, izzatli onam.
Jimsiz. Ko'zlaringiz tortdi-ku xira:
– Bu kim, Sharifami? So'raysiz sekin.
– Onajon, bu menman... So'z aytolmayman
Bo'g'zimni xanjarlar tiladi lekin.
Onaning bir kecha bedorligi-chun
Qarzin uzgan farzand bormikan, dunyo?
... Onamni quchaman ko'zda yosh bilan,
Shivirlar: ortimda qolgin, iloho!..

...Farzandlar Alloh taoloning rayhonlaridir.

Farzandning hidi jannatning hididandir.

Hazrat Muhammad payg'ambarimiz lutflaridan

Onamni hidlayman: undan sut isi,
Non isi va jannat isi keladi.
Chekkasida rayhon, qo'lida rayhon
Sochlaridan anbar isi keladi.
Qadoq qo'llariga, ajinlariga
Men uzoq boqaman, boqaman hayron.
Jannat tuhfa-larin bizlarga berib,
Senga qolgani ne bo'ldi, onajon?
...Sen ham bir zamonlar ohudek erkin,
Jannat bog'larida bir beka eding.
Otangni erkasi, onang bahori



Go'zallik qasrida malika eding.
Latif qadamlaring epkinin istab
Har bahor ochilar g'unchalar xandon.
Bugun sen xazonga ma'yus termulib
Nelarni o'ylaysan, aziz onajon?
Bolam, deb tunlarni kutasan bedor.
Qilasan duoyi jonlarini.
Sen chakkangga taqib jondek asraysan
Alloh taoloning rayhonlarini...

...Menga nima bo'ldi? Yer-ko'k aylanar, aylanar sevganim
tip-tiniq osmon. Qo'limni cho'zaman: Onam uzoqda... Menga
ne bo'lmoqda, ayting, onajon? Yurak bo'ysungisi kelmaydi
menga, u qafasni yorib chiqmoq bo'lar shart. Bu qanday
sinoat, sendan uzoqda boshimga bostirib kelarkanmi dard?
Xudoyim, onamni bag'ringa bosay. Ko'zga suray qadoq
tovonlarini... Onam kelmasidan uzib yuborma, u sevgan
jannatning rayhonlarini...

To'shakda yotibman. Yulduzlarsiz tun.
Bemor vujudimda boshlangan isyon.
Taskin topolmasdan butun olamdan
Men sizni sog'indim behad, onajon!
...Ana, olti bola bir supa bo'lib
Yulduzlarni sanab yotibmiz bedor.
Barglar orasidan sizgan shu'lalar –
Daraxtlar, soyalar biram fusunkor.
Nurlar hovuchimdan sirg'alib qochar,
Issiq mehringizdan yayraydi tanam.
Par kabi yengilman, par kabi yumshoq
Men kabi baxtiyor erur dunyo ham.
Chigirtka chirillar. Oy kezar sokin
Shodlikka to'ladir ko'krak qafasi.
...Chunki yonginamda yotibdi onam,
Chunki nafasimda Onam nafasi...



Xotirdan borliqqa qaytaman horg'in,
Bezovta titraydi ko'krak qafasi.
Chunki yonginamda Onajonim yo'q,
Nafasim sezmaydi Onam nafasini...

Moskva... Qarsillab kezayotir qish. Archalar qor libos
kiyishgan o'ktam. G'ujg'on metrolarda, avtobuslarda
kutubxona sari shoshaman men ham.

Moskva... Qarsillab kezayotir qish. Qorbobo, Qorqizni
qilgancha ermak. Bahor gullarini bosib bag'riga oilaga
tashrif buyurdi go'dak. U misli gul edi, u gulgun edi. Bahor
chechagiday edi u toza. Moskva onamga maktub yubordi:
suyunchi bering deb, aylab ovoza... Pochtalon eshikni
qoqadi xushvaqt: qutlovlar yog'ilar ajib bir tongdan. Onam
chaqaloqqa sarpo qilibdi: ko'rpacha yuborib O'zbekistondan!
~~Momiq paxta solib, gul qaviq qilib, nabiram o'ssin deb~~
durkun va sog'lom. Boshiga qo'ygin, deb kulcha yubormish
rizqi butun bo'lsin, deya bolajon...

Moskva... Qarsillab kezayotir qish. Tunda uyqularim
qoboqda qotmish. Onalik kitobin uqmoqlik og'ir, nahotki
meni deb, farzandlarni deb onalar o'zlarin ufqiga botmish.
O'zlarin unutib, menga aylanib, termulib go'dakning
qosh-u ko'ziga, ilk bor «Ona» desa shodlikdan porlab, sodiq
panohbunday yursa izidan... Onalik bu asli qanday sir erur?


...Onam non yopadi: xushta'm, bo'rsildoq,
Menga kulcha berar: ye, deydi, bolam.
Ushog'ini yerga tushirma, qo'zim,
Uvolin yelkaga olmasin olam.
– Uvol ne, so'rayman mehribonimdan, –
Tunlar osmondagi yulduzni sanab.
– Go'zal rizq, noz-ne'mat – jannat mevasi
Sarfin talab etur insofga qarab.
Chuldiroq buloqlar, sharqiroq soylar,
Chiqayotgan quyosh, hilol-u oylar.



Qirlarda shovullab chayqalgan ul'don,
Qo'shining qo'rasiga to'qilgan somon
Bag'ringga yugurib otilgan go'dak,
Boshingdan yog'dusin sochguvchi falak.
Kurrayi zaminda neki ekan bor
Mehr-u shafqatingdan behad umidvor.
Gullarning qoshida turarkansan lol,
Hazir bo'l, go'zallik bo'lmasin uvol.
Mening qorako'zim, davlatim, shonim,
Ortimda qoluvchi ulug' imkonim,
Nechun so'zlarimdan bo'lib qolding lol,
Sehrli jumboqdir savob-u uvol.
Alloh yosh joningga bersin-u to'zim
Dard-u baloingni olayin o'zim...

...Onajon, qoshimga yaqinroq keling. Qaydin yopirilur boshimga tuman... Onajon, qaylarga chaqirmoq bo'lar dard degan beshafqat, sovuq yosuman. Onajon, qaydasiz, go'dak chog'idek isingizga yana bir bora to'yay. Oqargan boshimni yosh bola kabi tizzangizga yana bir bora qo'yay. Dunyo o'yinlarin nihoyasi yo'q, tug'amas goh shirin, goh sovuq tushlar. Dunyo mushkulini hal etolmayin bosh chayqab o'tdilar ne-ne donishlar. Menga ham bu dunyo goho gul tutar, gohida hasaddan o'qtalar kamon. Quyun-u o'yindan meni hamisha sehrli duongiz asrar, Onajon!

Tush ko'rdim. Dunyoga sig'mayin qoldim,
Tun ko'ksini yordi pinhoniyl nalam.
Nega bezovtasan, nega notinchsan,
Bemormisan – boshing yostiqda, bolam?
Menda jon qolmadi. Titrar yuragim,
Azoblar quydirar tovonlarimni.
Sen ortimda qolgin. Tepkilab ko'mgin
Ushatib dildagi armonlarimni.
Yo'l buncha olis yo'l. Hadsiz, hududsiz,




Sabrim tugab borar, tugar bardoshim.
Bolam, jonim senda, yugurgan yo'lda
Vujudmas, u jonsiz qup-quruq lo'shim.
Qafasni yorgudek otilar yurak,
O'zini tanimay bormoqda o'zim.
Yetib borgunimcha mening yuragimni
Mahkam bag'ringga bos, erkato'y qo'zim.
Kiprikda qotar yosh. Turibdi oqmay,
Unga hayron boqib turibdi olam.
Bemor bo'lgan kimdir, aytgil ey dunyo,
Bolami yoki u qartaygan onam?
...Sidirilib tushar kiprikdagi yosh.
Ko'nglim umidlarga to'layotibdi.
Oromni sezmoqda xasta vujudim:
Meni izlab onam kelayotibdi.
Tarqab borayotir sovuq tumanlar,
Osmon moviylashib borayotir nim.
Peshonamda sezdim ilohiy sehr:
– Ko'zlaringni ochgin, ne bo'ldi qo'zim!
Bolajon, quluni olisda qolgan
Ot kabi to'xtamay yugurdim, yeldim.
Ko'zlaringni ochgin, erkato'y qo'zim,
Dard-u baloingni olay deb keldim...

IKKINCHI RIVOYAT

Rivoyat qilurlar, Hojar onamiz Ismoil atalmish go'dagi
ila dasht-u biyobonda qoldilar nolon. Tangri hukmi edi, Alloh
rasuli ularni dasht uzra yolg'iz qoldirib, kelgan diyoriga
yo'l oldi shu on. Tangri hukmi edi, ona-yu-go'dak kimsasiz
sahroda edilar tanho. Go'dak yig'lar edi suvsab, och qolib: –
O'zing yordam ber, deb Parvardigoro...

Ona, Hojar ona go'dak nolasin tinglab vujudini bosdi
titroqlar. Jondan aziz o'g'lin u yerga qo'yib, yugurdi...
Titradi hattoki tog'lar. Safo tog'lari-yu, Marva tog'lari sukut-



la kuzatdi nolon onani. Yana kuzatdilar oyoqlarini yerga urayotgan go'dak bolani. Tovuqlar tipirlab yerga urilar. Tog'larni qaytadan bosdilar titroq. Yorab, bu ne sohir tovon ostidan sharqirab otildi ko'klarga buloq....

Ona, Hojar ona...

Zam-zam bulog'i... O'tdi necha yillar, necha o'n asr. Ka'batulloh tinmay bag'riga chorlar, dunyoni o'ylatar hamon buyuk sir. Go'yo buloq uzra Hojar onamiz bag'rida go'dak-la kulib turibdi. Sharqirab otilar Zam-zam bulog'i: norasida go'dak tovonlarini tipirchilab yerga urib turibdi...

UCHINCHI RIVOYAT

...Uch bora Allohndan bashorat bo'ldi: Ka'batullohni sen qurib bitirding, qurbonliq aylagin shukronasiga...

Allohning rasuli uyqudan turib, uch yuz qo'y keltirib qurbonliq qildi va xalqqa berdi. Yana nido bo'ldi:

– Ka'batullohni sen qurib bitirding, bundan ham yaxshiroq qurbonliq aylagin shukronasiga...

Uyqudan uyg'onib Alloh rasuli uch yuzta tuyani qurbonlik qildi: uch yuzta tuyani xalqqa yedirdi... Yana nido keldi:

– Ka'batullohni sen qurib bitirding, eng sevgan narsangni qurbonlik ayla!

Ibrohim alayhissalom dedi: «Jigargo'sham Ismoilni yaxshi ko'raman». Nido keldi:

– «Uni qurbon qil».

Allohning rasuli Hojar onamizning qoshiga keldi: «Ismoilning bosh-u ko'zlarini yuv, uni kiyintirgin ham toza-yu soz, men uni eltaman do'stning uyiga».

Hojar ona uning aytganin qildi, boshlarini yuvdi, ko'zini yuvdi, sarmo ham kiygizdi – qildi orasta va so'ngra kuzatmoq chog'ida dedi: «Ilohim, bolamni qilibsan bizga mehribon, qoshingga yo'llarman padari bilan, men uni o'zingga topshirdim Tangrim, o'z qudrating bilan sog'u-salamat sen uni bag'rimga qaytargin omon!»




Ona munojoti yetdi Allohga! Yerga tushdi qo'ldan qazo
deb atalmish kamon: Tig' qahridan qaytdi Ismoil omon...

Onam, zahmatkashim, duogo'y dilim,
Sochlari kumushim – oq qorli onam,
Farishtalardan ham yuksak turuvchi
Beqiyos olmosim, viqorli onam.
Iffat gulshanidan chechaklar tergan,
Iboli, hayoli gavharim onam.
Bir etak farzandlar siynasi bo'lgan
Ko'zimning qorasi – javharim onam.
Hayot zalvoriga yelkasin tutib,
Bir bora «uh» deya nolimagan jon.
Ayt, seni yana men ne deya atay,
Munisim, dardkashim, aziz onajon!

...Bolam, deding menga bir kuni o'ychan. Quyosh
botayotir, unga sol nazar. U botmoq oldidan cho'qqida
to'xtar, kurrayi olamga solar bir nazar. Onalar ham misli
cho'qqida quyosh, cho'qqida turmaslar bir umr qotib. Salgina
shamg'alat bo'ldimi ko'zing, u nur tezligida ketadi botib.
Onam so'zlayotir, chekkada rayhon. Unga quloq tutib turibdi
dunyo. Horigan burgutlar aylanib uchar, ona burgutlarmi ular,
ajabo? Poloponlar quvnab ularni chorlar, o'ziga chorlaydi
samoviy tushlar. Uchayotgan chog'i poloponlarga nedan
saboq berar shiddatli qushlar?

Vatanni onaga qiyos etarlar,
Ona Vatan, deymiz lovullab jonlar,
Ko'zimiz o'ngida nurdek porlaydi
Ona deb atalgan ulug' insonlar.
Ikki dunyo unga bir tutam bo'lib,
Go'dagin dunyoga keltirgan chog'i.
Kindik qoni tomgan o'shal ma'voda
Qonga kirib keldi Vatan tuprog'i.




Tufroq islarini, xush xislarini
 Jonimga singdirgan oltinim onam.
 Ajdodlar yodini jonda asragan
 Zohirim, siyratim-botinim onam.
 Agar sen bo'lmasang alla sehrini,
 Muhabbat shevasin qaydan bilardim.
 Agar sen bo'lmasang ko'zmunchoqlarni
 Bolam kiyimiga kim ham ilardi?
 Agar sen bo'lmasang Vatan islari
 Gurkiragan tilni tanirdim qandoq?
 Onajon, o'zing ayt, yana qayda bor
 Xuddi sening kabi sabr degan tog'?
 Og'zidagi oshin o'zi yemayin
 Menga – farzandiga tutganim onam.
 Hayot novvotini menga yedirib
 Zahrini bir o'zi yutganim onam.
 Mening bo'ylarimni gul bilan o'lchab
 Jannat rayhoni deb quvongan onam.
 Xasta bo'lsa hamki o'zin unutib
 Menga duosini ilingan onam.
 Duogo'yim onam, sen duo qilsang
 Zum o'tmay qulaydi balolar tog'i.
 Duogo'yim onam – mening ko'ksimda
 Tinmay otulguvchi Zam-zam bulog'i.
 Muqaddas ma'voda – Ka'batullohd
 To'qnashar qismatlar, zamin-u zamon.
 Yam-yashil kurrani o'zi aslida
 Onalar duosi saqlaydi omon...

...Bolam, deding menga, she'r yozib bergin. Ismimni
 qo'sh, deding, sipo, xotirjam. She'ring chekkasida tursin
 Razzoqim, mening jonim bolam – Guli Hayom ham. Men
 titradim uzoq so'zlar yukidan, ular sig'madilar birgina
 she'rga. Onajon, shoirim, nima teng kelur, dunyoda Siz
 kabi bebaho durga. Mehrliniso onam, Shafolat onam, Nozik



ayajonim — oy, oftoblarim. O'zbekning onasi — hali hech kimsa tubiga yetmagan zo'r kitoblarim. O'zbek onalari — tengsiz shoirlar, eng go'zal she'rlari — farzandi, joni. O'zbekning onasi — Vatan onasi, topgani shu tuproq — bor xonumoni. Ular orzulari quyoshdan baland, sabrining oldida tog'lar egar bosh. Ular diydoriga intiq bo'lgancha, har safar tonglarni qarshilar quyosh.

Jannat onalarning poyida emish...
Shu xush tufroqlarni ko'zga so'r, dunyo
Bag'rida go'dagi balqigan ayol
Noningga egalik qilgil, iloyo!
O'ru qirlaringga bug'doy sochqi-la,
Hovlingga o'sma-yu rayhon sepib yur.
Go'zal liboslarni olib berayin
Tepkilab kiygin-u, mushklar sepib yur.
Dilingda qolmasin zarracha armon,
Alloh senga bersin komil zurriyot.
Bolam de, bo'tam de, qulunim deign,
Qoyadan quyoshdek qulama, hayhot.
Duogo'yim onam, g'animat onam,
Tonglar duong ila bo'lsin fayziyob.
Ona degan kalom asrlar osha
Ko'zlarga surtilib o'qilgan kitob.
Ona qalbi go'dak chappor urguvchi
Mehr bunyod qilgan zo'r oltin taxtdir.
Onalarga ta'zim aylagin, dunyo
Onaning bir ismi abadiyatdir!



MUNDARIJA

TO'MARIS	3
XOTIMA.....	30
XIZR BULOG'I.....	31
BAG'ISHLOV	31
DUOGO'YIM ONAM.....	66
Muqaddima	66
BIRINCHI RIVOYAT.....	67
IKKINCHI RIVOYAT	73
UCHINCHI RIVOYAT.....	74

adabiy-badiiy nashr

TO'MARIS

Muharrir
Badiiy muharrir
Sahifalovchi
Texnik Muharrir

Muhayyo Rixsibekova
Nasiba Ergasheva
Shahboz Sirojiddinov
Javohir Ne'matov

Litsenziya raqami: AI № 213, 26.03.2012

Bosishga 31.05.2019 da ruxsat etildi

Bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$

Bosma tabog'i 2,18. Shartli bosma tabog'i 4,2.

Garnitura «Times». Ofset qog'ozi

Adadi 5000 (1-zavod 2000) nusxa. Buyurtma № 77.

Original maket «DAVR PRESS»

nashriyotida tayyorlandi.

Manzil: Toshkent sh., Chilonzor tumani,

20-A mavze, 42-uy.

«SPECTRUM MEDIA GROUP» MChJ

bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh., Qushbegi ko'chasi, 6

Telefon: (+99897) 155-11-47, (+99871) 216-90-

Link: @smgprint

Marketing bo'limi: (+99894) 665-83-06

Web: www.davrpress.uz, www.kitoblar.com

E-mail: davr-press@mail.ru